

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI**

**AJINIYOZ NOMIDAGI NUKUS DAVLAT PEDAGOGIKA
INSTITUTI**




**Pedagogika fakul'teti
Pedagogika kafedrası
5110900 – Pedagogika va psixologiya ta'lim yo'nalishi
4^E kurs talabasi
Jumamurodova Yulduz Davron qizining**

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Mavzu: Nogiron o'quvchilarni ma'naviy va ijtimoiy hayotga qaytarish

Talaba:




Y. Jumamurodova

Ilmiy rahbar:



P.i.k., dots. S. Sayitbekova

Kafedra mudiri:



P.i.k., dots. M. Pazilova

Kafedraning 2019-yil 24-may dagi majlis qarori bilan himoyaga ruxsat berildi (10-sonli protokol)

Nukus - 2019

MUNDARIJA

Kirish	4
I BOB. MA`NAVIY HAYOT TUSHUNCHASI.....	13
1.1. Ma`naviy yangilanishning ijtimoiy-madaniy asoslari.....	13
1.2. Ma`naviyatda milliy qadriyatlarning o`rni.....	25
II BOB. NOGIRONLIKKA EGA BO`LGAN BOLALARNING MA`NAVIY HAYOTDAGI O`RNI VA IJTIMOY MOHIYATI.....	39
2.1. Nogironlikka ega bo`lgan shaxslarni parvarishlash va ijtimoiy hayotga qaytarish tamoyillari.....	39
2.2. O`zbekistonda ijtimoiy ish boshqaruvi borasida yaratilgan shart-sharoitlar va nogironlikning ijtimoiy modeli.....	47
Xulosa.....	54
Tavsiyalar.....	57
Foydalanilgan adabiyotlar.....	58

Kirish

Mavzuning dolzarbligi: Mamlakatimiz va jamiyatimizning zamon talablari darajasida rivojlanishini ilm-fansiz tasavvur qilish qiyin. Ilm-fan taraqqiyotida fundamental tadqiqotlar muhim ahamiyat kasb etadi. Aynan ular orqali yangi bilimlar o'zlashtiriladi va nazariyalar shakllantiriladi, kelgusi amaliy tadqiqotlar va innovatsion ishlanmalar uchun mustahkam asos yaratiladi. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan tadqiqotlarning hammasini ham ilm-fanning bugungi yuqori rivojlanish darajasiga to'la javob beradi, deb bo'lmaydi. Yuqori texnologik ilmiy mahsulotlarni amaliyotga joriy etish uchun yangi zamonaviy tajriba-ishlab chiqarish, konstruktorlik-texnologik tashkilotlar hamda innovatsiya markazlarini tashkil etish zarur. Marketing va litsenziyalash xizmatlari talab darajasida emas. Bu mamlakatimiz ilmiy-innovatsion mahsulotlarini amaliyotga keng tatbiq etishda yaqqol sezilmoqda. Fan, ta'lim va ishlab chiqarish integratsiyasini yanada takomillashtirish muhimligi alohida qayd etildi. Yangi texnologiyalarni joriy qiluvchi korxonalarga imtiyozlar va preferentsiyalar berish ilm-fanga investitsiya kiritadigan korxonalar soni sezilarli darajada oshishida muhim ahamiyat kasb etadi. Mavjud ilmiy salohiyat va mablag'larni iqtisodiyot tarmoqlarining buyurtmalari va muayyan muammolarni yechishga qaratilgan eng muhim ustuvor tadqiqotlarga yo'naltirish - zarur. Jahonning yetakchi institutlari, universitetlari, ilmiy markazlari va Fanlar akademiyalari bilan ilmiy hamkorlikni yanada rivojlantirishni zamonning o'zi talab qilmoqda, dedi Prezidentimiz. Xorijning yetakchi o'quv va ilmiy muassasalarida ta'lim va ilmiy daraja olgan yurtdoshlarimiz uchun mamlakatimizda qulay shart-sharoitlar yaratib berish, ularni rag'batlantirish choralarini ko'rish kerak. Mamlakatimizda yuqori salohiyatga ega, jahon miqyosida e'tirof etilgan olimlar ko'p. Ular o'z maktablarini yaratishi, shogirdlar tarbiyalashi lozim. Yosh avlodni salohiyatli kadrlar etib tarbiyalashdagi birinchi bosqich — maktab ta'limini tubdan takomillashtirish, ilmiy kadrlar va yuksak malakali mutaxassislar tayyorlash jarayonining uzluksizligini ta'minlash

zarur. Bu yo`lda hech narsani ayamaymiz, deydi davlatimiz rahbari. Shavkat Mirziyoevning saylovoldi uchrashuvlarida ilgari surilgan takliflar, jumladan, zamonaviy texnoparklar, Akademiklar shaharchasida erkin iqtisodiy hudud maqomiga ega bo`lgan Innovatsion markaz tashkil etish bo`yicha tashabbusi ilmiy-tadqiqot - institutlari, ta`lim muassasalari va sanoat korxonalarining raqobatbardoshligini oshirish, sohaga mahalliy va xorijiy investorlarni keng jalb etish imkonini berishi ilm-fan ahli tomonidan alohida ta`kidlandi.¹

“Biz istiqbolimizning ilk kunlaridanoq eski, qotib qolgan mafkuraviy aqidalardan voz kechishga, ma`naviy yangilanishga, milliy istiqbol g`oyasi tamoyillarini odamlarning qalbi va ongiga singdirishga qaratilgan aniq siyosat olib bordik”. Ro`y berayotgan islohot va o`zgarishlar bu jarayonning ifodasi bo`lib, ayni vaqtda ma`naviyat sohasida milliy qadriyatlarni tiklash va yanada rivojlantirish, jamiyat ma`naviy hayotida badiiy-estetik omillarning ahamiyatiga e`tiborni kuchaytirish; ijodiy salohiyat uchun zaruriy shart-sharoitlar yaratish; ma`naviy sog`lom avlodni tarbiyalash; kadrlar tayyorlash milliy Dasturini og`ishmay amalga oshirish; millatlararototuvlik va barqarorlikni ta`minlash; yuksak insoniy fazilatlarni shakllantirishda sharqona an`analardan ijodiy foydalanish tufayli yanada keng ijtimoiy ma`no kasb etmoqda. Bu jarayonni ilmiy tadqiq etishning dolzarbligi quyidagilar bilan belgilanadi:

Birinchidan, mustaqillik murakkab jarayon bo`lib, kishilarning yuksak ma`naviy va ma`rifiy hayoti, ijodiy salohiyati, ongliligi, erkin tafakkurga tayanadigan ob`ektiv-tarixiy zaruriyatini anglatadi.

¹ Илм-фан ютуқлари – тараққиётнинг муҳим омили : [Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёев Янги йил арафасида – 2016 йил 30 декабрь куни мамлакатимизнинг етакчи илм-фан намоёндалари билан учрашди] // Халқ сўзи. – 2016. – 31 дек. – Б.1. 2017

Ikkinchidan, O'zbekistonda bozor munosabatlariga o'tish ma'naviy va ma'rifiy yangilanishlar negizida bormoqda. Jahonning ko'pgina, aniqroq aytganda G'arb mamlakatlarida bozor iqtisodiyotiga o'tishda asosan iqtisodiy rivojlanish qonunlariga amal qilingan va huquqiy me'yor hamda mezonlarga rioya etilgan bo'lib, Sharqda, xususan respublikamizda bu jarayonning kechishi ma'naviyatga ustuvor darajada ahamiyat berish orqali ro'y berayotir.

Uchinchidan, islohotlarning bosh yo'nalishi samaradorligining pirovard natijalarini belgilab beradigan kuch inson omilidir. Shu ma'noda O'zbekistonda jamiyatning yangilanishi insonning har tomonlama, avval ma'naviy-ma'rifiy va axloqiy-estetik kamol topishi asosida amalga oshirilmoqda.

To'rtinchidan, O'zbekistonda barpo etilayotgan huquqiy davlat va demokratik, erkin fuqarolik jamiyatining o'zi keng ma'noda ijtimoiy-ma'naviy hodisadir. U ma'naviyat, axloq-odob, ma'rifat kabi o'lmas qadriyatlarga suyangan holda yurt tinchligi, Vatan ravnaqi, xalq erkinligi, farovonligi, komil insonni tarbiyalash, ijtimoiy hamkorlik va millatlararo totuvlik, diniy bag'rikenglik, rivojlanishning asosi va shartiga aylantiradi¹.

Beshinchidan, kishilar o'zlarining rang-barang, badiiy-estetik fazilatlarini orqali, bir tomondan, mustaqillikning bunyodkorlik tabiatini real gavdalantirayotgan bo'lsa, ikkinchi tomondan, jamiyat yangilanishida ularning o'zlari ham faol kuchga aylanib bormoqda.

Oltinchidan, bugungi kunda jamiyatimizda o'zlari nogiron bo'lsa ham, qonuniy haq-huquqqa ega bo'lgan nogiron bolalarni ma'naviy tushunchasini oshirish, uning ijtimoiy mohiyatini anglab yetishga ehtiyoj sezilmoqda.

Jamiyat ma'naviy hayoti o'zgarishlar va yangilanishlarida badiiy-estetik omillar o'ziga xos o'rin tutadi. Ularni tadqiq etish falsafiy-estetik tafakkur oldida turgan dolzarb masalalardan biridir. Bozor munosabatlariga o'tishda ma'naviy-ma'rifiy sohada yuz berayotgan tub sifat o'zgarishlarining qonuniy tarzda kechishi, ularni xarakterlantiruvchi ma'naviy kuchlar haqida so'z borganda, badiiy-estetik

¹ Karimov I.A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot – pirovard maqsadimiz. O'zbekiston 2000

omillarning ta'siri to'g'risidagi masala xususida ham to'xtalib o'tish lozim. Bu birinchidan. Ikkinchidan, ma'naviy yangilanish markazida inson, uning turmush tarzi, taqdiri, g'oyalari, bir so'z bilan aytganda, inson kamolotini ta'minlaydigan omillarning yaxlit birligi turadi. Bular orasida badiiy-estetik omillarning o'z o'rnini bor.

Jamiyat rivojlanib, ma'naviy omillarning ijtimoiy taraqqiyotdagi o'rnini va ahamiyatini o'rganib borgan sari oiladagi tarbiyaga e'tibor ham kuchaya boradi. Bu borada oiladagi ijtimoiy-ma'naviy muhitni barqarorlashtirish, ota-onalarda farzandlar oldidagi, farzandlarda ota-ona va jamiyat oldidagi burch va mas'uliyat tuyg'usini kuchaytirish bugungi kunning eng dolzarb masalalaridan biridir. "Yurtimizda har bir inson uchun Vatan tushunchasi, avvalo, oiladan boshlanadi,- degan edi Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov,-shu bois oila va ijtimoiy, mafkuraviy tushunchalar chambarchas bog'liqdir. Oilaning jamiyatda tutgan o'rnini, tarbiyaviy-axloqiy ahamiyati, qadr-qimmatini anglab etish bizning asosiy vazifamizdir"¹.

Oila – insoniyat yaralgan muhim va muqaddas ijtimoiy institut – mussasadir. Darhaqiqat oila, ayniqsa o'zbek oilasi asrlar osha yosh avlodni tarbiyalashda, komil insonni voyaga yetkazishda muqaddas maskan bo'lib kelgan va shunday bo'lib qoladi. Har bir insonda Vatan tushunchasi ilk bor tetapoya bo'lib o'sib kelayotgan yosh go'dakning ongi, ruhi va qalbiga kirib boradi. Butun umri hayotiy faoliyati davomida yana ham sayqallashib, mazmunan boyib mujassamlashadi. Bu jarayon oiladagi sog'lom muhitda, ota-bobolar o'giti, ota ibrati, ona mehri, aka-uka, opa-singillarning mehri, oqibati orqali amalga oshib boradi. Shaxs ma'naviyati, ijtimoiy madaniyati, dunyoqarashi, tafakkuri, e'tiqodi, iymoni avvalo oilada shakllanadi. Xitoy xalqining birinchi muallimi Konfutsiy oilani kichik bir davlatga taqqoslagani bejiz emas. Qadimgi yunon faylasuflari ham oilaning jamiyat birligi va osoyishtaligini saqlashda va yetuk avlodni tarbiyalashdagi o'rnini yuqori baholagan. Buyuk entsiklopedist olim Aristotel oilani baxt-saodat

¹ Karimov I. Milliy istiqlol g'oyasi – xalqimizning ishonchi va e'tiqodi. T.: "O'qituvchi" 2004 yil

uyi deb ta'riflaydi. Jismoniy sog'lom va ma'naviy boy oilaning zamirida yosh avlodni kamol toptirish eng avvalo oiladan boshlanadi. Yuksak axloqli, insoniy fazilatlar, vatanparvarlik, Vatan bilan g'ururlanish va unga muhabbat, uning baxt-saodati, ravnaqi uchun mas'uliyatni tarbiyalash, bugungi g'oyalarga, yomon odob-axloqqa qarshi nafaqat ruhi dastavval oilada kurtak otadi. Oilada shakllangan odob-axloq, xulq-atvor keyinchalik mahallada, mehnat jamoalarida, o'quv muassasalarida rivojlanib, shaxsning ongi va qalbiga singib boradi. "Oilada, maktabda, mehnat jamoasida, mahallada olib boriladigan axloqiy tarbiya, jamoatchilik fikrining kuchi oila mustahkamlanishining garovidir"¹-degan edi Birinchi Prezidentimiz.

Bugungi kunda oilalarning ijtimoiy holatini tahlil qilish, jamiyatdagi salbiy ko'rinishlarini tahlil qilish, jamiyatdagi salbiy ko'rinishlarni oldini olish, normallashtirish, dolzarb vazifadir.

Quyidagi funktsiyalarni dolzarb deb atash mumkin:

- oila a'zolari shaxsining rivojlanishi;
- nogironlarni emotsional me'yorlashtirish va ularni psixologik davolash;
- yosh avlodning ijtimoiylashuvi;
- mehnatga layoqatsiz jamoa a'zolari va voyaga yetmaganlarni iqtisodiy va ma'naviy qo'llab-quvvatlash;
- oila a'zolarini aniqlangan ijtimoiy mavqeini ko'rsatish;
- bolalarni parvarishlash, jamiyat a'zolarining jismoniy sog'ligini qo'llab-quvvatlash;

Bugungi kunda «Farzandlarimiz bizdan ko'ra kuchli, bilimli, dono va albatta baxtli bo'lishlari shart!» degan hayotiy da'vat har birimizning, ota-onalar va keng jamoatchilikning ongi va qalbidan mustahkam o'rin egallagan. Hozirgi vaqtda mamlakatimiz aholisining 32 foizini yoki 10 millionini 30 yoshgacha bo'lgan yoshlarimiz tashkil etadi. Yoshlarimiz haqli ravishda Vatanimizning kelajagi uchun javobgarlikni zimmasiga olishga qodir bo'lgan, bugungi va ertangi

¹ Karimov I.A. o'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va kafolatlari. T.: "O'zbekiston" 1997 yil

kunimizning hal etuvchi kuchiga aylanib borayotgani barchamizga g`urur va iftixor bag`ishlaydi. Bu sohada olib borayotgan keng miqyosli ishlarimizni, xususan, ta`lim-tarbiya bo`yicha qabul qilingan umummilliy dasturlarimizni mantiqiy yakuniga yetkazishimiz zarur. Shu maqsadda hukumatning, tegishli vazirlik va idoralar hamda butun ta`lim tizimining, hurmatli domlalarimiz va professor-o`qituvchilarning eng muhim vazifasi — yosh avlodga puxta ta`lim berish, ularni jismoniy va ma`naviy yetuk insonlar etib tarbiyalashdan iboratdir. Farzandlarimiz uchun zamonaviy ish joylari yaratish, ularning hayotda munosib o`rin egallashini ta`minlashga qaratilgan ishlarimizni yangi bosqichga ko`tarishni davrning o`zi taqozo etmoqda. Biz yoshlarga doir davlat siyosatini hech og`ishmasdan, qat`iyat bilan davom ettiramiz. Nafaqat davom ettiramiz, balki bu siyosatni eng ustuvor vazifamiz sifatida bugun zamon talab qilayotgan yuksak darajaga ko`taramiz. Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma`naviy salohiyatga ega bo`lib, dunyo miqyosida o`z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo`sh kelmaydigan insonlar bo`lib kamol topishi, baxtli bo`lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz.²

Mazkur bitiruv malakaviy ishning tadqiqot zamirida jamiyat hayoti tushunchasi, uning mohiyat-mazmuni, tarkibi, ma`naviy yangilanishlar jarayonida badiiy-estetik omillar ta`siri, O`zbekistonda qaror topgan badiiy-estetik reallikning ijtimoiy mohiyatini, shu borada ma`naviy hayot yangilanishining mazmuni va mohiyatini dolzarbligi asos qilib olindi va ana shu yangilanishlar zamirida insonga siyosiy, huquqiy, ijtimoiy-ma`naviy turmush tarzini tanlashga e`tibor qaratildi. Nogironlikka ega bo`lgan bolalarni ma`naviy hayot yangilanishining mohiyati ochib berildi.

Bitiruv malakaviy ishning obykti: Nogironlikka ega bo`lgan bolalarni ma`naviy va ijtimoiy hayotga qaytarish jarayoni.

² Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини мард ва олижаноб халқимиз билан бирга қурамыз : [Шавкат Мирзиёевнинг Ўзбекистон Республикаси Президенти лавозимида киришиш тантанали маросимида бағишланган Олий Мажлис палаталарининг қўшма мажлисидаги нутқи] // Халқ сўзи. – 2016. –15 дек. – Б.1; 2.

- bolalarni parvarishlash, jamiyat a'zolarining jismoniy sog'ligini qo'llab-quvvatlash;

Mazkur bitiruv malakaviy ishning tadqiqot zamirida jamiyat hayoti tushunchasi, uning mohiyat-mazmuni, tarkibi, ma'naviy yangilanishlar jarayonida badiiy-estetik omillar ta'siri, O'zbekistonda qaror topgan badiiy-estetik reallikning ijtimoiy mohiyatini, shu borada ma'naviy hayot yangilanishining mazmuni va mohiyatini dolzarbligi asos qilib olindi va ana shu yangilanishlar zamirida insonga siyosiy, huquqiy, ijtimoiy-ma'naviy turmush tarzini tanlashga e'tibor qaratildi. Nogironlikka ega bo'lgan bolalarni ma'naviy hayot yangilanishining mohiyati ochib berildi.

Bitiruv malakaviy ishning obyekti: Nogironlikka ega bo'lgan bolalarni ma'naviy va ijtimoiy hayotga qaytarish jarayoni.

Bitiruv malakaviy ishning maqsadi: Nogironlikka ega bo'lgan bolalarni ma'naviy va ijtimoiy hayotga qaytishga yordam berish.

Bitiruv malakaviy ishning vazifalari:

- Ma'naviy yangilanishning ijtimoiy-madaniy asoslarini belgilash;
- Ma'naviyatda milliy qadriyatlarning o'rnini aniqlash;
- Nogironlikka ega bo'lgan shaxslarni parvarishlash va ijtimoiy hayotga qaytarish;
- O'zbekistonda ijtimoiy ish boshqaruvi borasida yaratilgan shart-sharoitlar va nogironlikning ijtimoiy modelini ishlab chiqish.

Jamiyatning yangilanishi yalpi jarayon bo'lib, moddiy-iqtisodiy asoslar, ijtimoiy-siyosiy asoslar, ma'naviy-axloqiy omillarning dialektik birligini gavdalantiradi.

Iqtisodiy plyuralizm, bozor munosabatlariga o'tish, yangi mazmundagi siyosiy tizim va tuzilmalar, xalq ma'naviyatining poklanishi, qadriyatlarning tiklanishi, ularning aholi tomonidan faol idrok etilishi ana shunday asosini tashkil etadi.

Tadqiqot ishini aniq maqsadlar asosida yoritish, uning natijalarini aniq uslub va yo'llar asosida yondashgan holda amalga oshirish, ilmiy farazning o'ziga xos mohiyatini tushungan holda yondoshishlikni taqozo etadi.

Íshning tarkibiy tuzilishi: Ísh kirish, ikki bob, xulosa, tavsiyalar va foydalanilgan adabiyotlar ro'yhatidan iborat.

I BOB. MA`NAVIY HAYOT TUSHUNCHASI

1.1.Ma`naviy yangilanishning ijtimoiy-madaniy asoslari.

Jamiyat mavjudligi va taraqqiyotining muhim tomoni va harakatlantiruvchi kuchi ma`naviy hayot hisoblanadi. Jamiyatning ma`naviy hayoti avvalambor ikki jihat bilan ko`zga tashlanadi. Birinchidan, u kishilar hayotiy faoliyatning ko`zga ko`rinishi va kechishi, uning asosiy turlaridan bo`lib, ikkinchi tomondan, jamiyatning nisbiy mustaqil sohasidir.

Jamiyatning ma`naviy hayotiga dahldor muammolarining manbalari inson faoliyatining ikki yoqlama, ya`ni moddiy va ma`naviy shaklda ro`yobga chiqishidan kelib chiqadi. Ma`naviy ne`matlarni ishlab chiqarish aqliy mehnat sohiblari tomonidan alohida ijtimoiy ongli faoliyat vujudga keltirishdan iboratdir. Bu jarayonlarning natijalariga asosan uch yo`nalishda, ya`ni birinchidan, g`oya va nazariyalar, ma`naviy qadriyatlar; ikkinchidan, individlarning ijtimoiy-ma`naviy aloqalari; uchinchidan, muayyan dunyoqarash sohibi bo`lgan inson (keng ma`noda ma`naviy mohiyat)ning ichki olami orqali gavdalanadi. Ma`naviy ne`matlarni ishlab chiqarish strukturasi jihatdan voqelikni asosan uch xil, ya`ni ilmiy, estetik, diniy shaklda o`zlashtirishni ifodalaydi.

Jamiyatda mavjud aloqa va munosabatlarning rang-barangligi o`z-o`zidan ravshan, biroq, eng asosiysi, ikki ya`ni ularning moddiy va ma`naviy sohalarda ko`rinishlari hisoblanadi. Binobarin, ular kishilar o`rtasida amal qiladigan bir tartibdagi munosabatlar ifodasidir. Demak, hamma gap munosabatning ikkala turi o`rtasidagi tafovutlarning asoslanishi, ularning nimaga tayanib tarkib topishidadir. Agar bu asos moddiy bo`lsa, munosabat ham shunga muvofiq bo`lsa, bu asos – g`oya, tushuncha, obraz tazida bo`lsa, u holda munosabatlar ma`naviylik kasb etadi. Shunga ko`ra, ma`naviy ne`matlar ishlab chiqarish uchun ya`ni: g`oyalarni, obrazlarni, tasavvurlarni sof tushunchalarda yaratish, kishilar o`rtasida shakllanadigan ma`naviy aloqalar, ijtimoiy-ma`naviy munosabatlarni tarkib toptirish turlari amal qiladi.

Ma'naviy ne'matlar ishlab chiqarishning o'ziga xosligi, moddiy ishlab chiqarishdan farqlanuvchi tomonlarini qiyos qilganda, ko'zga yaqqol tashlanadi. Bu narsa avvalo ideal tuzilmalarda ko'rinadi. Bular orasida bosh xususiyat ularni idrok qilishning umumiy xarakterda ekanligidadir, bu esa hamma uchun tegishli ma'naviy qadriyatlar mavjud bo'lishini ta'minlaydi.

Moddiy boyliklar chegaralangan bo'lib, hayot mantiqiga ko'ra, qanchalik ko'proq da'vogarlik qilsa, odamlarning har biriga moddiy ne'matlardan shunchalik kam nasb etadi. Ma'naviy boyliklarni taqsimlash sohasida butunlay boshqa manzarani ko'rish mumkin, ya'ni kishilar ular bilan qanchalik ko'proq aloqa bog'lasa, ularni o'zlashtirish bilan bog'liq faoliyat shu qadar kengayib, chuqurlashib, ahamiyati yanada ortadi.

Ma'naviy faoliyatning mo'jizakorligi uning ulkan joziba kuchiga ega ekanligida namoyon bo'ladi. Rassomlar, olimlar, yozuvchilar, ruhoniylar, ularni boshqalar e'tirof etadimi, yo'qmi, bundan qat'iy nazar, ijod qilaveradilar.

Asosiy narsa – ma'naviy faoliyat jarayonini ijodkorga uning o'ziga xos kuchli ruhiy qoniqish baxsh etishidadir. Ma'naviy faoliyat qandaydir yangilanish, ijodiylik, boshqacha aytganda, ma'naviy-ruhiy olamni yangidan yaratishga yo'naltirganligi bilan o'z sohibi boshqalardan qoniqish hosil qiladi.

Kishilik tarixida moddiy boyliklar yaratuvchilar emas, aksincha, unga egalik qiluvchilar ko'proq qadr topadi. Ma'naviy boylik sohasida esa butunlay boshqacha manzarani ko'ramiz. Ma'naviy boyliklarni o'zining xususiy mulkiga aylantirib olgan sohib ko'pchilikni qiziqtirmasligi mumkin, shuningdek, ma'naviy boyliklarni shunchaki to'plab olish va uni o'zlashtirish degani ham emas. Jamiyatda aqliy mehnat mahsulotlarini shaxsiy mulkka aylantirganlar ularning she'rlarini, qo'shiqlarini ko'p biladiganlar emas, balki ularni yaratuvchilar, ijrochilar, ommaga yetkazuvchilar ko'proq qadr opadi.

Jamiyat miqyosida "ma'naviy hayot" tushunchasi "ma'naviy soha" tushunchasi orqali konkretlashtiriladi. Jamiyatning ma'naviy sohasiga butun

ma'naviy hayot emas, balki uning ba'zi qiymatlari yoki ma'naviy ne'matlar ishlab chiqarish darajasi bilan bog'liq ixtisoslashgan tomonlari kiradi.

Maxsus sotsial institutlar – mafkuraviy va ilmiy muassasalar, teatrlar, kutubxonalar, muzey, maktab va boshqalar shular jumlasidandir. Maxsus muassasalarda bolaning shaxsiy xususiyatlari va xulq-atvor shakllanish muammosiga bog'liq bolani joylashtirishning qulay sharoitlari va to'liq rivojlanishidagi imkoniyatlarining samarali shakllanishini ishlab chiqish, ularning hayotini yaxshilash, shu bilan birga har tomonlama me'yorda rivojlanishi uchun zarur imkoniyatlarni yaratib berish; bolalarni barcha huquq va manfaatlarini himoyalashga qaratilgan tadbirlarning kasbiy salohiyat bilan amalga oshirilishining ta'minlanishi masalasi keng amaliy ahamiyatga ega bo'lib bormoqda.

Bular ma'naviy qadriyatlarni yaratuvchilar va tarqatuvchilar, ayni vaqtda xalq qalbi va ongiga singdirishda faollik ko'rsatuvchilar hamdir.

Ilmiy-falsafiy adabiyotlarda "Ma'naviy soha" tushunchasiga odatda fan, mafkura, badiiy ijod, estetik faoliyat, ta'lim va tarbiya kabilarni kiritadilar. Ma'naviy sohaning tarkibi esa quyidagi uch belgi bilan ajralib turadi: ular, birinchidan, ijtimoiy ong shakllariga asoslanadi; ikkinchidan, ma'naviy hayotning muayyan turlarini o'z ichiga oladi; uchinchidan, jamiyatda ularning o'zi shakllangan kichik tizimchani tashkil etadi¹.

Yuqoridagilarga asoslanib aytish mumkinki, jamiyatning ma'naviy hayoti, o'z mohiyatiga ko'ra kishilar o'rtasidagi ruhiy aloqalarning real jarayoni; amal qilishiga qarab esa, ijtimoiy hayot va ongli faoliyatni tashkil qilish, kishilarning ma'naviy ehtiyojlari va ularni qondirish bilan bog'liq nisbiy mustaqil sohadir.

Ma'naviy boyliklarni yaratish jarayonida ijtimoiy ong, ma'naviy qadriyatlar ma'naviy munosabatlarning mohiyatni ifodalaydi. Ma'naviy ne'matlar ishlab chiqarish aqliy, mehnat va badiiy iste'dodlar salohiyatiga suyanadi. Jamiyat rivojlanishi bilan intellektual mehnat insonlarning faoliyati uchun yanada kengroq imkoniyatlarni vujudga keltiradi. Uning o'ziga xos xususiyatlaridan biri ham

¹ Tojiev X. Milliy mafkuraning nazariy va metodologiya masalalari. T.: 1999 y

shunda. Aqliy mehnatning jozibadorligi, ayniqsa, adabiyot va fan sohasida shular bilan belgilanadi.

Ma'naviy ne'matlar ishlab chiqarish, eng avvalo mehnatning ijodiyligida ko'zga tashlanadi. San'atkor, olim, rassom, bastakorning mehnati haqiqatan ijodiydir. Kengroq ma'noda insonning har qanday moddiy mehnati, ma'naviylik ruhi bilan sug'orilgandir. Sababi – moddiy faoliyatda inson nafaqat jismoniy, balki shu bilan birga, o'zidagi ma'naviy kuchlarini ham namoyish etadi. Ilmiy, falsafiy adabiyotlarda moddiy ne'matlar ishlab chiqarishning ma'naviy salohiyati, degan tushunchaning ishlatilishini shu bilan izohlash mumkin.

Ma'naviy hayot tarkibi haqida so'z ketganda, unda ma'naviy ehtiyojlar alohida o'rin tutishini ta'kidlash joizdir. Ehtiyojlarning tarkib toposhi va rivojlanishi hamma vaqt insonning kamol toposhi jarayoni, birinchi o'rinda uning qobiliyatlari bilan, chunonchi, voyaga yetishi, organizm rivoji, tarbiyasi, yangidan-yangi manfaatlari paydo bo'lishi bilan bog'langandir.

Insonning ma'naviy ehtiyojlari negizida ma'naviy manfaatlari, axloqiy tuyg'ulari yotadiki, bu esa ijtimoiy mohiyatga egadir. Musiqani farqlaydigan quloq, go'zal shaklni in'ikos etadigan ko'zning qobiliyatlari va shu kabilar mehnat tufayli tarkib topganligidan kishiga rohat bag'ishlaydi. Nafaqat tuyg'ular, balki tafakkur ham ma'naviy ehtiyojlarni shakllantiradi. Inson tabiat bag'rida yashaydi, kishilar orasida istiqomat qiladi va uning tuyg'ulariga ijtimoiy mazmun bag'ishlaydi, uning ehtiyojlari, olamga munosabatini belgilaydi. Masalan, go'zal tabiat manzarasi kayfiyatga qarab turlicha ifoda etilishi mumkin; tabiat go'zalligi shaharlikka nisbatan qishloq aholisida boshqacha taassurot qoldiradi, odamning ovqatga munosabati to'qnikidan butunlay boshqa: "Och odamning qulog'iga musiqa kirmaydi, ya'ni unga yuz marta tashviqot qilsangiz ham, u qornidan boshqa narsani o'ylamaydi"¹.

¹ Karimov I.A. O'zbekiston: milliy istiqolol, iqtisodiy, siyosat, mafkura. 1 t. 190 bet

Demak, ehtiyoj o'zining ma'naviy xususiyatlarini yo'qotmagan holda ham moddiy faoliyat, ham ma'naviy faoliyatda yuzaga keladi va qondirilishini taqozo etishi mumkin.

Ma'naviy hayot tizimini qadriyatlarsiz tasavvur etib bo'lmaydi. Kishilar ma'naviy olamining shakllanishi, ularning ma'naviy boyishida dunyoqarashning kengayishi, ma'naviy qadriyatlarni tashkil etadi. Ular inson faoliyati, mehnati, yaratuvchanlik qobiliyati, ijodkorligi mahsulidir.

Xulosa qilib aytganda, ma'naviy hayot, ma'naviy qadriyatlar – bular kishilarning ma'naviy faoliyati, hayoti, inson, tabiat, madaniyat to'g'risidagi qarashlari, malakaviylik samarasidir. Qadriyatlardagi ma'naviylik inson hayotiy faoliyatining mahsuli, uning mehnati va ayni qobiliyati ifodasidir.

Aytish mumkinki, jamiyatning ma'naviy hayoti muayyan dunyoqarash, g'oya, maqsad va intilishlar sohibi bo'lgan kishilarning ijodiy o'zgartiruvchanlik va yaratuvchanlik faoliyatlarini gavdalantiradigan jarayon bo'lib, tarkibiy ma'naviy ehtiyoji, ma'naviy ne'matlarni o'zlashtirish, ma'naviy munosabatlar, shuningdek, ularni amalga oshiradigan ma'naviy faoliyatning vosita va usullar tizimidan iboratdir.

Ma'naviy yangilanishning ijtimoiy-madaniy asoslari

Milliy mustaqillik sharoitida amalga oshirilayotgan islohotlar tufayli ijtimoiy hayotning barcha sohalarida, jumladan, jamiyat va shaxs ma'naviyatidagi tub o'zgarishlarda yangilanish jarayonlari yuz bermoqda. Darhaqiqat jamiyat taraqqiyotining hozirgi bosqichida mustaqil yurtimizning iqtisodiy-siyosiy barqarorlikka ro'y-rost erishayotgani o'z navbatida, ma'naviy yangilanishni ham taqazo etayotganligi ham tabiiy holdir. Negaki har qanday jamiyatda o'z milliy-ma'naviy qiyofasi bo'lmas ekan, jamiyat o'z o'rniga ega bo'lmaydi. Yangilanish nafaqat umumjamiyat miqyosidagi, balki har bir inson kamoloti uchun zarur shart-sharoit yaratadigan jarayondir. Shu ma'noda ham jamiyatdagi boshqa o'zgarishlar

kabi, avvalo inson uchun uning kamoloti va hayot farovonligini ta'minlaydigan islohotdir.

Demak, jamiyat taraqqiyotining konkret tarixiy bosqichiga xos qonuniy jarayonlar va konkret vazifalar yangilanishning ob'ektiv zaminini tashkil etadi. Jamiyat yangilanishining har qanday jarayoni inson mentaliteti, ruhiyati va uning ob'ektiv zaruriyatni yangilik tarzida idrok etish qobiliyatidan boshlanadi va turmushning iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy, ma'naviy-madaniy va boshqa sohalarini qamrab oladi. Bu fikrlar yangilanish jarayonini tadqiq etishda muhim nazariy-metodologik ahamiyat kasb etib, quyidagi tamoyillarga suyanishga asos bo'ladi;

- yangilanish jarayonini tadqiq etishda uni yaxlit, ya'ni iqtisodiy, ijtimoiy, axloqiy, estetik, tashkiliy va boshqa holatlarini hisobga olish;
- shundan ko'rinadiki, jamiyatdagi yangilanish jarayonlari avvalambor, inson tafakkurini yangilash, uning turmush tarzini yangilashdan boshlanadi;
- jamiyat ma'naviy hayoti yangilanishini ilmiy tahlil qilish zaruriyati bugungi kunda ro'y berayotgan tub sifat o'zgarishlarining tarixiy ildizlarini yoritish, ilmiy-falsafiy tahlil etish;
- sobiq ittifoq sharoitida yuzaga kelgan ijtimoiy tanazzul va uning xalq tafakkuridagi asoratlarini tugatish;
- yangicha fikrlash uchun zaruriy ijtimoiy-tarixiy shart-sharoitni vujudga keltirish;
- milliy mustaqillik sharoitida dunyoqarash tizimida yangicha tamoyillar, yo'nalishlar tarkib topishini ta'minlash;
- mustaqillik dunyoqarashining yangilanishiga amaliy ta'sir ko'rsatayotgan ob'ektiv-sub'ektiv omillar, ularning o'ziga xos xususiyatlari, natijalarini yoritish bilan bog'langandir.

Ayni vaqtda bu ijtimoiy o'zgarishlarni mazmun-mohiyati, ko'lami va miqyoslarini milliy g'oyasiz to'g'ri tasavvur qilib bo'lmaydi. Binobarin milliy g'oyaning o'zi

ana shunday yangilanishlarning tarkibiy ijtimoiy, ma'naviy ehtiyoji, jamiyatdagi hamjihatlikning ma'naviy omilidir.

Jamiyat hayotining ma'naviy yangilanishi siyosiy qarashlarsiz tasavvur etib bo'lmaydi. Islohotlarning demokratik mohiyati, ma'naviy kuch-qudrati, shubhasiz, davlat jamiyatining inson manfaatlarini siyosiy jihatdan izchil himoya qilish bilan belgilanadi. Jamoatchilik fikri aholi ongida sodir bo'layotgan o'zgarishlarning o'ziga xos muhim tomoni – bu davlat biz uchun hamma narsani qilib beradi, degan boqimandalik kayfiyatidan asta-sekinlik bilan forig' bo'layotganligidan dalolat beradi.

Yangi siyosiy va huquqiy tafakkurni shakllantirish iqtisodiy tafakkur shakllanishiga nisbatan murakkab va qiyin jarayondir. Jamiyatda amalga oshirilayotgan islohotlar ayni vaqtda ham siyosiy, ham huquqiy, ham iqtisodiy, ham sotsial hayotning jami unsurlari bilan birga ma'naviy sohaning o'zini ham qamrab olishi tabiiydir. Shunday ekan, tarkibiy tuzilish sohasidagi islohotlar ma'naviy hayotda ham jiddiy o'zgarishlarga olib keldi.

Ma'naviy soha tabiatan o'ziga oqilona rahbarlikka ehtiyoj sezadi, majburiylik, kuch ishlatish kabi salbiy hodisalar bilan kelisha olmaydi, ayni vaqtda, madaniyat arboblari hurmat bilan munosabatda bo'lishni taqazo etdi. Bunday sharoitda har kimga ilmiy va texnikaviy ijod erkinligi, madaniyat yutuqlaridan foydalanish huquqi kafolatlanadi. Ma'naviy sohani demokratlashtirish shaxs erkinligi muaamosi bilan uzviy bog'langan. Adabiyotlarda erkinlikning turi, ya'ni ijtimoiy shart-sharoit ta'minlaydigan erkinlik hamda shaxsning ma'naviy fazilati sifatida erkinlik haqida fikrlar yuritiladi. Boshqacha aytganda, ruhiy hodisaning mohiyat-mazmuni insonning e'tiqodi, ishonchi bilan belgilanadi, busiz jamiyat, ma'naviyatning o'zgarishi, yangilanishi to'g'rsida so'z bo'lishi mumkin emas.

Ma'naviy erkinlik – shaxsning borliqni bilishi, o'zini namoyon etishi, o'z-o'zini tasdiqlashi sohasidagi ijodkorlikdir. Ilhomsiz xech qanday ijod bo'lishi mumkin emas, ilhomlanish qobiliyati ichki-ma'naviy va tashqi erkinlikning

uyg'unlashuvdir. Tashqi erkinlik insonning ma'naviy erkin bo'lishining ijtimoiy shartidir. Buning ma'nosi shuki, insonning ma'naviy erkinligiga zo'ravonlarcha aralashish aslo mumkin emas.

Jamiyatda huquqiy madaniyatni qaror toptirish ma'naviy erkinlikning muhim omili hisoblanadi. Chunki huquqiy madaniyat, ma'naviy madaniyat bilan uzviy bog'liq holda harakatlanadi. Ma'naviy sohadagi demokratlashuvning tezlashishida fan, san'at, adabiyot katta rol o'ynaydi. Demokratlashda shunday axloqiy-psixologik muhitni yuzaga keltirish oqibatida ma'naviy ijodkorlik rag'batlantiriladi, fandagi xilma-xillik, ijodiy muhitda o'zaro aloqadorlik zahirida madaniyat qo'llab-quvvatlanadi, ma'naviy sohaning moddiy-texnikaviy bazasi mustahkamlanadi. Ijtimoiy pedagogik-psixologik xizmat tarkibidagi muassasa psixologi, shifokor, deffektolog, katta yetakchi kutubxonachilarning o'zaro faoliyati ham har bir tarbiyalanuvchining har tomonlama ijtimoiy himoyalanihga qaratiladi.

Milliy mustaqillik kishilardan ijodiy tafakkur, tashabbuskorlik, ishbilarmonlik, tashkilotchilik, konkret sharoitni chuqur anglab, faoliyat ko'rsatish, omilkorlikni talab qiladi. Bu ishbilarmonlik fazilatlarini shaxsning intellektual sohasi bilan bevosita bog'langandir. O'zbekistonning mustaqillikka erishuvi xalq hayotida tub burilish davrini boshlab berdi, natijada ijtimoiy, shaxsiy hayotdagi yangilanish tabiiy, qonuniy jarayon tusini oldi. Mustaqillik sharofati bilan islom dini uzoq yillik ta'qibdan so'ng, diniy qadriyatlar qayta tiklandi, diniy e'tiqodga erkinlik berildi. Bu narsa O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va boshqa qonunlar doirasida belgilb qo'yildi.

Xalqimizning qadimiy va navqiron badiiy-estetik madaniyati, san'ati rivojlanishiga katta e'tibor berilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, Vazirlar Mahkamasining maxsus farmonlari va qarorlarida badiiy madaniyatning jamiyat ma'naviy tiklanishi jarayonidagi o'rni va mas'uliyati belgilab berilgan. Teatr, kino, musiqa, radio, televideniya, musiqiy ta'lim, milliy raqs, badiiy

akademiya, xalq hunarmandchiligi, amaliy san`at, estrada qo`shiqlari sohasidagi yangicha badiiy-estetik tamoyillar vujudga keldi.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib, shunday xulosa chiqarish mumkinki, jamiyatdagi o`zgarishlar, islohotlar, yangilanishlar ma`naviyatni rivojlantirish doirasida amalga oshirilmoqda, yaxlit holda ular barkamol insonni tarbiyasiga da`vat etilgandir. Falsafiy-estetik nuqtai nazardan tahlil etadigan bo`lsak, bu jarayonlar haqiqat, go`zallik, ezgulikni o`zida namoyon etadigan insonni kamol topishiga qaratilgandir.

Yosh avlodni hozirgi zamon talablariga mos ravishda tarbiyalash jarayonlarini keng ko`lamda rivojlantirish uchun tegishli tashkiliy tuzilmalar-bolalar va yoshlar tashkilotlari va birlashmalarini yanada faollashtirish maqsadga muvofiqdir. Ushbu birlashmalarning ta`sir doirasi keng bo`lib u yosh ekolog, tabiatshunos va milliy hunarmand, yosh sprotchi, tarixchi va faylasuf kabi to`garak va harakatlarga barcha yoshlarni jalb etadi. Eng asosiy maqsad, bolalar ushbu tashkilotlarga o`z xohishlari bilan qatnashishlarini ta`minlash, u yerdagi faoliyat mazmuni yoshlarimizning umumiy rivojlanishiga ko`maklashsin va oxir-oqibatda, asosiy strategik maqsadimiz barkamol shaxsni tarbiyalash vazifasini amalga oshirishga yordam bersin.

Ta`lim-tarbiya jarayonida qatnashuvchi barcha sub`ektlarning o`zaro samarali ta`sirini ta`minlovchi mexnizmlar va shart-sharoitlarni yaratish. Umuman olganda, ushbu tizimning barcha tarkibiy qismlari-oila, uzluksiz ta`lim, mahalla, jamoat birlashmalari mavjud. Ular o`z ishida sust faoliyat ko`rsatishmoqda, o`zaro samarali ta`sirchanlikning, yangi tafakkurni vujudga keltirish, oxir-oqibatda, milliy istiqlol g`oyasini shakllantirishdagi faoliyat sustkashlik bilan olib borilmoqda.

Ta`lim muassasalarining faoliyatini ijtimoiy institutlar sifatida tubdan qayta ko`rib chiqish. Bunda maktab, litsey, kollej, institutlarni nafaqat ilm-fan maskani, balki haqiqiy madaniy-ma`rifiy markaziga aylantirish. Pedagog kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirishga qo`yiladigan talablarni

tubdan qayta ko'rib chiqish, ya'ni pedagoglarning o'z bilim saviyasini yangi darajaga ko'tarishga munosabatini o'zgartirish.

O'zaro hamkorlik pedagogikasi o'qituvchi va o'quvchi orasida hamfikrlik, ishonch, o'zaro yordam, ijodiy hamkorlik muhitini yaratadi. Bu esa o'z navbatida, yoshlar tomonidan haqiqiy insoniy qadriyatlarni anglash va e'tirof etishni kafolatlaydi.

Ijtimoiy, gumanitar fanlar, o'zbek xalqi va davlatchiligi tarixi, badiiy, falsafiy, pedagogik tafakkurni shakllantirishi, etnografiya, etnogenezis, adabiyotshunoslik, san'atshunoslik va boshqa fanlar bo'yicha ilmiy tadqiqotlar saviyasini tubdan o'zgartirish, yangi pog'onaga ko'tarishni taqozo etadi.

Xizmat xodimlari endilikda bolaning quyidagi huquqlari va manfaatlarining himoyalashini ta'minlash maqsadida har bir masalada konsilium tashkillashtirishlari va hamjihatlikda masalani hal qilishlari zarur bo'ladi. Ular quyidagi amalga oshiriladi:

- tarbiyalanuvchi nogironlarning huquq va manfaatlarini himoya qilish;
- tarbiyalanuvchi nogironlar bilan diagnostik, psixologik-profilaktik maslahat berish va reabilitatsiya ishlarini olib borish;
- tarbiyalanuvchi nogironlar bilan pedagoglar, ma'muriy va boshqa xodimlari psixologik-profilaktik maslahat berish ta'lim (seminarlar, treninglar) ishlarini olib borish;

Hissiyotlarning rivojlanganligi.

His-tuyg'ular hamda xatti-harakatlar orqali bolaning namoyon etayotgan munosabati nazarda tutiladi. Dastlab, kattalarning yoki ota-onaning, yaqin insonlarning ishtirokidagi holati, keyin esa bola katta bo'lib borgan sari notanish kishilarning oldida o'zini tuta olishi. O'z ichiga ilk bog'langanlikning tabiati va fazilatlarini, turli xil o'zgaruvchan sharoitlarga moslasha olish imkoniyatini, stressga nisbatan javob reaksiyasi va o'zini nazorat qila olish darajasini oladi.

Mansublik.

Bolada shakllanayotgan shaxsiy individuallikka xos bo'lgan va alohida bir butun hamdda qadrlil insonligini his qila olishini o'rganadi. U o'z ichiga quyidagilarni oladi: bolaning o'ziga va qobiliyatlariga nisbatan munosabatini, o'z obrazini qanday tasavvur qilishi va o'zini qanday baholashi, o'ziga nisbatan ijobiy bahoning mavjudligi. Bunga shuningdek, irqiy, diniy mansubligini, jinsi, yoshi, chegaralangan imkoniyatlarini ham kiritish mumkin. Oilaga mansublik hissi, oila, tengdoshlari guruhi va jamiyat tomomidan qabul qilinishi (madaniy mansublik ham) bilan bog'liq his-tuyg'ular kiradi.

Oila va ijtimoiy o'zaro munosabatlar.

Hayrixohlik, hamdardlik hamda boshqa insonning o'rniga qo'ya olish imkoniyatining rivojlanishi. Alohida e'tiborni boladagi jismoniy imkoniyatlarning chegaralanganligi unga ta'sir ko'rsatishi yoki o'ziga xizmat ko'rsatish ko'nikmalarining rivojlanishiga ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan boshqa ijtimoiy sharoitlarning yaratilganligiga qaratilishi lozim.

A Avloniyning «Bolalar - yaxshilik, uyg'unlik va go'zallikning birinchi timsoli» degan formulasini inkor etib bo'lmaydi- bunga sabab shuki, bolalar toshbag'ir ham, rahmsiz ham, badjahl ham bo'ladi. Haqiqatda, hech qanday boshlang'ich yaxshilik yo'q. Yaxshilik axloqiy soha sifatida ijtimoiy shart-sharoitlarga bog'liq bo'ladi. U hamisha insonga bo'lgan munosabatdir. Shuning uchun ham chehrasida insoniyat zotiga xos bo'lgan go'zallik aks etib turmaydigan bola bo'lmaydi! Bola fe'l-atvorining xususiyati shundan iboratki, u haddan tashqari ko'ngilchandir. Eng toshbag'ir bola ham hamisha qiziqarli ishga qo'shiladi uning ko'zlari porlab, ish ortidan boradi. Shunday qilib, tarbiyasi qiyin bola o'zida shu qadar qimmatli insoniy materialga egaki, bu material inson qalbining chinakam gavhariga aylanishi uchun kuch-g'ayrat sarflamaslik kechirib bo'lmaydigan ishdir.

Hozirgi zamon pedagogikasi, uning tarbiya nazariyasi bolaga qo'yiladigan va bildiriladigan talab va ishonch birligiga asoslanadi. Ana shu birlik asosida pedagogning murosasiz axloqiy pozitsiyasini bir vaqtning o'zida ham

talabchan, ham sahiy inson, bolalar bilan muomalada chinakam insonparvarlikni qaror toptiruvchi kishi bo'lish pozitsiyasi taqozo etiladi. Darvoqe, sahiylik bilan talab o'rtasida keskin farq yo'qliginigina emas, balki aksincha uzviy aloqadorlik borligini aytib o'tmoq joiz. Haqiqattan ham biz tarbiyaviy ishda qanday masalaga yondoshmaylik, ma'lum darajada axloqiy talablarga murojaat qilamiz. Hayot, umumiy ish, do'stlar, e'tiqodlar, tamoyillar shuni talab qiladi, yuklaydi. Zotan insonning baxti ham burch talablarining bajarilishi unga quvonch keltirishidan iboratdir.

Chinakam mahorat insonni yuksaltirish uchun qanday harakatni qo'llanish yaxshiroq bo'ladi, degan savolga zo'r berib javob izlayotgan joyda obro'talab kishi masalani oddiy va tez hal qilib qo'ya qoladi. Agar chinakam mahoratli pedagog hamma vaqt munosabatlar sistemasi bolalarning ijodiy kamolotiga yordam berishi lozimligini o'ylasa, obro'talab pedagog ularning mustaqil faoliyatini nihoyatda toraytirib, ularning so'zsiz quloq solishlarini yoqtiradi va bu bilan bolalar muhitidagi tarqoqlikka ko'maklashadi. O'z so'zini o'tkazishga intilish chinakam mas'uliyatga, tashabbusga, o'zaro yordam ko'rsatishga barham beradi, pedagoglar jamoasidagi o'zaro munosabatlariga va ko'proq darajada tarbiyalanuvchilar orasidagi o'zaro munosabatlarga salbiy ta'sir ko'rsatadi, moslashuvchanlik va ikki yuzlamachilikni vujudga keltiradi.

1.2.Ma'naviyatda milliy qadriyatlarning o'rni

Ma'naviy-axloqiy hayotning ilmiy tadqiq etish uzoq tarixiy an'anaga ega bo'lib, o'z mohiyati, mazmuniga oid rang-barang nuqtai-nazarlar, qarashlar, kontsepsiyalar yuzaga kelganligi ma'lum. Ijtimoiy-falsafiy fanlar ma'naviyatga avvalambor, ontologik va gnesologik jihatdan yondashib uning o'ziga xos reallik ekanligi, ayni vaqtda inson uchun o'z ongi orqali bilib olishi mumkinligini e'tirof etadi. O'tmishda odamlar kundalik turmush-tarzidan kelib chiqib, ma'naviyatga nisbatan, moddiy-iqtisodiy hayotga e'tibor berganliklari sir emas. Ishlab chiqarish kuchlari rivojlanmaganligini, moddiy ne'matlarni etarli va to'la-to'kis ishlab chiqarishga monelik ko'rsatib kelgan. Shu sababdan moddiy turmushga qaraganda kishilarning ma'naviy hayoti qandaydir ikkinchi darajali ahamiyatsizdek tuyulgan. Bu esa, ma'naviyatga shunga xos munosabatni shakllantirgan. Biroq oilalar bilan oilalar, qabilalar bilan qabilalar, urug'lar bilan urug'lar o'rtasida o'zaro aloqalarni yo'lga qo'yish va bunda chinakam insoniy fazilatlarning paydo bo'lishi uchun albatta ma'naviyat qaror to'pishi ijtimoiy zarurat bo'lib qoldi. Ma'naviyatsiz jamiyat shakllanmas va barqaror bo'la olmas edi.

Ma'naviy-axloqiy fikrlar tarixi shundan dalolat beradiki, haqiqiy ma'naviylik bu – ezgulik, mehribonlik, ko'tarinkilik va go'zallik, vijdoniylik, bilimga ishtiyoq, tabiat va tabiatga oqilona munosabatni tarkib toptirish g'oyasi va tuyg'usining yaxlit ifodasidir. U kishilarning qaxramonlik va fidokorona mehnat qilish, kelajakka ishonch ruhida va fidokorona mehnat qilishga da'vat etadi. Ma'naviyatning yo'qligi inson irodasini pasaytiradi, haqiqatga ishonchsizlik tug'diradi, xudbinlikka, jinoyatga yetaklaydi. Shu sababli har bir shaxsda yuksak ma'naviyatni tarkib toptirishda ko'maklashish, ma'naviyatsizlik, qalbakichilik, tubanlashishni oldini olish muhim ijtimoiy vazifa bo'lib kelgan.

Tadqiqotchilarning qayd etishlaricha, inson o'zlikni anglash jarayonida kamolotga erishadi. Shu ma'noda insoniyat tarixining o'zi kishilarning ma'naviy komilikka erishish tarixidir. Bu haqida jahon falsafasi tarixida juda ko'p aqidalar,

nazariyalar, kontseptsiyalar vujudga kelgan va hozir ham bu jarayon davom etmoqda. Insoniyat erishgan ma'naviy barqarorlik haqida so'z borganda, uning dasavval asotirlar dunyoqarashi bilan bog'liq holda yuzaga kelganligini ta'kidlash mumkin. Bunday intilish mifologik asarlar, xalq yaratgan og'zaki ijod namunalari, maqol va matallarda o'z ifodasini topgan.

Milliy mustaqillik ma'naviyat hodisasiga yangicha yondoshish zaruriyatini keltirib chiqardi. Shuning uchun olimlarimizning bu masala bilan qizg'in shug'ullanishlari bejiz emas. "Ma'naviyat – insonning ma'lum darajadagi jismoniy, aqliy, axloqiy va ruhiy balog'oti va dunyoqarashini ifodalydigan tushunchadir", -deb yozadi T.Mahmudov¹. Yuqoridagi fikrlar shuni ko'rsatadiki, bugungi milliy ma'naviyat ko'p qirali bo'lib, rang-barang shakllar, ko'rinishlar, omillar va tamoyillarni qamrab oladi. Ma'naviyatni shakllantirish har bir millatning tarixiy ildizlaridan, boy ma'naviy merosidan, qadriyatlaridan, urf-odatlaridan kelib chiqqan holda amalga oshirish milliy ma'naviyatni ta'sir etishning asosiy me'zonlari sanaladi.

Tariximizga nazar salsak o'zbek millati o'zining milliy qadriyatlariga boy, urf-odatlari ota-bobolaridan meros qolib, qadriyatlarga aylanib kelgan millat sanaladi. Shu sababli ma'naviy bo'xtonlar, zamonning zayli bilan ma'naviy kamsitishlar, diniy qadriyatlarimizning toptalishidan qat'iy nazar ma'naviyatimizning poydevori mustahkam bo'lganligini ko'rsatdi. Barcha zamonlardan eson-omon o'tib, bugungi muborak mustaqillik davriga yetib keldik. Milliy qadriyatlarimiz keng ma'noda millatimizning ko'rkiga aylandi. Ma'naviy boyliklarimiz xalqimizga xizmat qilmoqda. Ajdodlarimizdan qolgan ulkan ma'naviy merosni asrab-avaylab kelgusi avlodga yetkazish muhim burchga aylandi. Ulkan ma'naviy boyligimiz barkamol avlod tarbiyasiga xizmat qilmoqda. Buning barchasi ma'naviy qadriyatlarimizning bus-butunligidan dalolat beradi. Olim M.K.Yansharov inson dunyoqarashlari tarkibida «Odam bilimlari majmui», «Uning qarashlari tizimi», «Tevarak atrof va boshqa kishilarga munosabati

¹ Mahmudov T. Mustaqillik va ma'naviyat. T.: "Sharq" 2001

ko'rinishi», «E'tiqodlari majmui» ni ham kiritilib, yanada to'laroq tushuncha beradi. Ana shu jihatdan qaralganda dunyoqarash deganimiz inson ongining mahsus formasi bo'lib, insonning bilimlari, qarashlari, e'tiqodlari va ideallari tizimini o'z ichiga olib, ularda insonning tabiat va jamiyat rivojiga munosabatlari, hayotning har xil jabhalarida ijtimoiy-siyosiy, odob-axloqiy o'rni aniqlanadi.

Ilmiy dunyoqarashlarni shakllantirish butun insoniyat hayoti davomida hamma davr olimi, allomalarining diqqat markazida bo'lgan.

Markaziy Osiyo buyuk mutafakkirlari dunyoqarashlar shakllanishida bilish nazariyasi muammosiga katta e'tibor qaratganlar. Bu borada Al'-Xorazmiyning ilmiy faoliyatining o'rni bexiyos. U o'zining sinov, sinov-kuzatish usullari bilan bilish nazariyasiga katta hissa qo'shgan. Abu Nasr Farobiy esa insonni tabiatning eng buyuk ne'mati deb hisoblagan. Uning fikricha inson o'zining a'zolari, onggi, aqli bilan dunyoni har tomonloma o'rganish qobiliyatiga ega.

Farobiy "Namunali ta'lim" haqidagi risolasida o'quvchilar o'zlashtirilishi lozim bo'lgan materialni eng yaxshi yo'sinda bayon qilish masalasiga alohida to'xtalib, bu ishning ikkita turini tavsiya etgan ularning biri bevosita sezishga yaqin narsalarni oldingi o'ringa qo'yishdan va ikkinchisi aqlga yaqin narsalarni olg'a surishdan iboratdir.

Farobiy o'zining o'qitish metodlari haqidagi tushuntirishlarida o'quvchilarga turli bilimlar berish bilan birga mustaqil holda bilim olish yo'llarini ko'rsatish, ularni bilimlarining zarurligiga shak - shubxasiz ishontirish kerakligini uqtirgan.

Ibn Sino asarlarida ham didaktikaning printsiplariga, xususan ko'rsatmali o'qitishga qiziqish bilan qaralgan. Ibn Sino dastlabki o'quv mashg'ulotlarida buyumning tashqi xossasini o'rgansa, o'sha buyumni va tasvirini ko'rib chiqsa, o'zi mustaqil holda bilimlarni o'zlashtira oladi, deb hisoblagan.

Sharqshunos olim Kindiyning fikricha, insonda ijobiy sifatlarni tarkib toptirishning eng zarur omili aql kuchini rivojlantirishdir. Aql kuchi rivojlanmasa, inson umr bo'yi Arastuning kitoblarini o'qisa ham, ularda ifodalangan fanlarning

birortasini ham o'zlashtira olmaydi. Bunday odam har qancha urinsa-da, faqat boshqalarning gaplarini takrorlab bera oladigan bo'ladi. U hech narsaning mohiyatini tushunmaydi va o'zlashtira olmaydi. Kindiy ana shu fikrlarni bayon qilar ekan, o'qitishning ilmiyligi va ongliligi qoidasini nazarda tutgan.

Demak, ma'naviyat axloqiy-estetik qadriyatlar mazmunini ifodalab, kishilardagi chinakam insoniylik, gumanizm tamoyillarini tasdiqlaydigan, shuningdek, dunyoqarash va madaniyat sohasidagi ma'naviyatsizlikni bartaraf etadigan, mohiyatan iymon, umid, mehr-muhabbat, donishmandlik, go'zallik, adolatparvarlik, uyg'unlik kabi qadriyatlardan tashkil topadigan fazilatlar yig'indisidir.

Ma'naviy-axloq haqidagi fikrlarni tahlil etib, estetik qadriyatlarni o'rnini yaqqolroq tasavvur qilish maqsadida ma'naviyat tarkibining bo'linishini quyidagicha ta'rifladik:

- axloqiy-ruhiy fazilatlar. Insonning bu fazilatlari ezgulik va mehr-oqibatni axloqiy tushunchalarida aks etadi. Ular o'zining qarama-qarshisi – ezgulik va nafratga aylanib ketishiga yo'l qo'ymaslikni ham bildiradi. Ezgulik (yaxshilik), ruhiy hamdardlik, himmatlilik, hayrihohlik, odamshinavandalik, shavqatlilik, samimiylik, saxiylik, sofdillik, ko'ngillilik, sabr-qanoatlilik – bular insonni tashqi olamga ijobiy yondoshish qadriyatlarini belgilaydi. Ezgulikning ma'naviy-axloqiy me'yorlari insonning o'ziga nisbatan talabchanlik, boshqalar bilan yuksak madaniy munosabatda bo'la olish, o'zga fikr va boshqacha pozitsiyadagilar bilan murosa qila bilish qobiliyati nafaqat ko'pchilik, balki, alohida insonning oqilona ehtiyojlarini to'la qondirishga amaliy yordam ko'rsatishni ham ifodalaydi. Bu fazilatlar insonga qadriyatlar sifatida berilgan bo'lib, insonda mehr-muhabbat, yuksak ma'naviylikni gavdalanishidir. Zero, Alisher Navoiy so'zi biln aytganda, ma'naviyatni har bir inson zimmasiga hikmatga aylanib ketgan quyidagi mas'uliyatni yuklaydi:

“Odamiy ersang, demagil odamiy,

Oniki yo'q xalq g'amidin g'ami”.

Har bir millat taraqqiy etishining asosiy mezonlaridan biri kishilarning davlatga bo'lgan ishonchida namoyon bo'ladi. Bu sohada mustaqillikka erishgan respublikamizda jamiyatni boshqarishda demokratik tamoyillar izchillik bilan qo'llanilmoqda, kuchli davlatdan, kuchli jamiyatga o'tish qonunlari asosida amalga oshirilmoqda. Jamiyatni boshqarishda demokratik tamoyillar izchillik bilan qo'llanilmoqda. Kuchli davlatdan, kuchli jamiyatga o'tish jarayoni samarali kechmoqda. Eng muhimi, inson va davlat o'rtasidagi munosabatlarda inson manfaatlarining ustuvor bo'lishiga erishilmoqda. Respublikamizda bozor munosabatlariga o'tish va rivojlanish jarayonida ijtimoiy muhofaza masalasida mehr-muruvvat bilan yondashilmoqda. Yoshlarning ham jismoniy, ham ma'naviy barkamolligini ta'minlash katta ijtimoiy ma'no kasb etmoqda. Qariyalarga mehr-shafqat ko'rsatimoqda. Bularning barchasi millatimizning azaliy qadriyatlarining yuksalganligidan dalolat beradiki, ajdodlarimizdan bu fazilatlar bizga qadriyatlar asosida meros bo'lib kelgan. Ushbu qadriyatlarni avaylab-asrash, kelgusi avlodlarga bus-butun holda yetkazish, yuksak ma'naviyatimizni avaylab-asrash bugungi kun insonlarining muqaddas burchidir.

Bugungi kunda Respublikamizda oila turmush tarzini o'rganish, oilada sog'lom turmush tarzini yaratish borasida muhim ishlar amalga oshirilmoqda. Bu vazifa va muammolar oilaning sog'lom bo'lishi, ma'naviy va modiy farovonligini oshirishi, farzandlar tarbiyasining muhim omili bo'lib xizmat qiladi. Sababi, faol yaratuvchanlikka asoslangan turmush tarzi jamiyat hayotining barcha sohalarida ijtimoiy faollik, oliy darajadagi fuqarolik sifati, aqliy, ma'naviy va jismonan sog'lom, mehnatda, o'zaro munosabatda, muloqotda yuksak madaniyatlilik, salbiy hodisalarga murosasizlik bilan qarash, ularga qarshi kurashish, tabiatga nisbatan oqilona munosabatda bo'lish, atrofdagilarga mehr-oqibatda bo'lish kabi sifatlarni o'zida mujassamlashtirgan bo'ladi.

Darhaqiqat, oilada turmush tarzini sog'lomligi kishilarni jamiyatda egallab turgan sotsial statuslarini yanada mustahkamlashga xizmat qiladi. Chunki turmush tarzi kishilarning ma'naviy dunyosi bilan ham uzviy bog'liqdir va ularning fikrlash

tuyg`usi borasida ham muhim o`rin tutadi. Kishilarning turmush tarziga mavjud ijtimoiy shart-sharoitlar ma`lum darajada sezilarli ta`sir ko`rsatadi. Kundalik hayot faoliyatida ularning axloqiy-estetik qarashlari, xulqi, muomalasi, hayotiy turmush tasavvurlari, ularning ichki dunyosiga, e`tiqodiga singib ketadi va turmush tarziga, fikrlash tarziga aylanadi. Turmush tarzining eng muhim ijtimoiy tomoni jamiyat a`zolarining ijtimoiy mehnati, o`zaro munosabatlar, oila, kundalik turmushidagi faolligi, kishilarning jismoniy va ma`naviy imkoniyatlarini atrofdagi tabiiy va ijtimoiy muhit bilan qay tarzda namoyon bo`lishidadir.

Bundan tashqari oilada sog`lom turmush tarzini shakllantirish orqali jamiyatimiz a`zolarini, ayniqsa, yoshlarni milliy vatanparvarlik, insonparvarlik g`oyalariga, shu bilan bir qatorda milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sadoqatli qilib tarbiyalashda muhim o`rin tutadi. Xozirgi o`tish davrida yoshlarni uzoq tarixga ega bo`lgan madaniyatimizni yuksaltirishda ham oiladagi sog`lom turmush tarzi o`z ta`sirini ko`rsatadi. Mana shularni inobatga olgan holda hukumatimiz tomonidan oilalarda sog`lom turmush tarzini shakllantirish va uni takomillashtirish uchun etarli shart-sharoitlar yaratib berilmoqda. Chunki kishilarning turmushi jamiyat taraqqiyotining iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy va ma`naviy-madaniy jihatlarini o`zida aks ettiradi va bu oiladagi sog`lom muhitni belgilaydi. "Sog`lom tanda sog` aql" degan xalqimizning ulug` bir naqli bor. Har bir odam sog`lom bo`lsagina yaxshi mehnat qilishi, ilhom bilan ijod qalamini tebrata olishi, egan luqmasi taniga singishi, tiniqib, uxlay olishini bilsa-da, o`sha sog` holatni saqlash, ham vujudga, ham aqlga, ham ruhga o`z vaqtida madad berib turish kerakligini, bu faqat o`zimizning manfaatimizga aloqadorligini ba`zan unitib ham qo`yamiz.

Professor Vasila Karimovanning bu boradagi olib borgan ilmiy izlanishlari orqali quyidagilar ta`riflanadi va sog`lom bo`lish mas`uliyatini har bir insonni o`ziga yuklaydi. Bu esa o`z-o`zidan oiladagi sog`lom turmush tarzini asosini belgilaydi va inson salomatligining garovi bo`lib xizmat qiladi.

Fanda inson salomatligining jismoniy, ruhiy, aqliy quvvatiga bog`liqligini o`rganadigan sohalar bor. Masalan inson salomatligi, ma`naviy barkamolligi,

go`zalligi to`g`risida kalokagatiya, artobioz kabi atamalar orqali tushuntiriladigan hodisalar bor. Kalokagatiya – grekcha so`z bo`lib, bizning tushunchamizdagi yaxshilik bilan ibratli xulqning birligi, axloqiylik bilan kishilar go`zalligining uyg`unligini bildiradi. Artobioz esa lotinchadan o`girilsa, oqilona, ya`ni aql bilan tashkil etilgan turmush tarzi ma`nosini bildiradi. Bu tamoyil ayniqsa, oiladagi turmush tarzini oqilona shakllantirishga monanddir.

Shunisi quvonarliki, bularning barchasi bizning azaliy qadriyatlarimizga, hayot tarzimizdagi ma`naviyat va axloq, estetika bilan go`zal va ibratli xulq uyg`unligiga bog`liq tushunchalarimizdan kelib chiqadi. Bularning asosiy tamoyillarini Vazirlar Mahkamasining 2005 yil 25 yanvarda qabul qilgan “Sihat-salomatlik yili” davlat dasturi to`g`risidagi qarorning mazmun va mohiyatini joyiga qo`yish, uning istiqboli uchun barcha shart-sharoitlarni yaratish davlatimiz siyosatining ustuvor yo`nalishlaridan hisoblanadi.

Demak, tana sog`ligi xalqimiz uchun eng muhim qadriyatlardan bo`lishi bilan birgalikda u har birimizning dunyoqarashimiz, falsafamiz, mafkuramizning, oqilona turmush tarzimizning ajralmas bo`lagi bo`lmog`i darkor. Shu bois ham davlat dasturining bandlarini sinchiklab o`rganar ekanmiz, unda har bir shaxsning o`z salomatligini saqlashga to`g`ri va mas`uliyatli munosabatda bo`lishi, sog`lom turmush tarzini eng avvalo o`zi, qolaversa yaqinlari uchun tashkil etishga bog`liq shart-sharoitlar o`z ifodaini topganligining guvohi bo`lamiz. Fuqarolar sog`lig`iga hukumatning bunday g`amxo`rligi biror bir boshqa davlatda yo`q. Davlat dasturida “Sog`lom oila” tarbiyaviy-ma`rifiy dasturini amalga oshirishga yo`naltirilgan qator chora-tadbirlar belgilangan. Ularning ma`nosi shundaki, salomatlik, eng avvalo, mavjud muhitga, odamlarni bir-birlariga mehrli, muruvvatli bo`lishlari g`amxo`rlikka va samimiyatiga to`liq munosabatlariga bog`liq. Shu ma`noda salomatlik psixologik kategoriya bo`lib, uning sharti va sharoiti – sog`lom oila muhitidir. Oilada ota-onaga ko`p narsa bog`liq. Ular oiladagi barcha hodisalarning balogardonlari sifatida eng avvalo o`z sog`liqlariga o`zlari mas`ul ekanliklarini unutmasalar, uni saqlashda barcha ehtiyoj choralarni o`z vaqtida ko`rgani holda

oilaviy hayotga to'g'ri munosabatni shakllantira olsalar, murod-maqсадlariga albatta erishadilar. Sog'lom odam, u otami, yoki onami, turmush va ro'zg'ordagi barcha past-balanliklar, turli vaziyatlar, kerak bo'lsa, qiyinchiliklarga tez moslashib, ulardan oqilona chiqish yo'llarini bilishi kerak. Oddiy oila muhitida bir narsadan toliqqanda yoki asab buzilganda, dardimizni aytadigan hamdard, yaqin kishimiz bo'lgani ma'qul. Ana shunday hayotiy falsafa va yo'nalish bilan yashagan inson albatta, baxtli va sog'-salomat bo'ladi. Muhimi, bunday hayotiy mo'ljallar, jismoniy va ruhiy tetiklik, bardamlik u tarbiyalayotgan bolalarning baxti va kelajakka intilishiga ishonchli zamin bo'ladi. Ana shunday ota-ona tarbiyalagan farzandlarga ortiqcha o'gitlar, tarbiyaviy tazyiqlar darkor emasligini ta'kidlash kerak. Chunki inson aqlini, uning tafakkurini peshlaydigan, tanini sog', vujudini go'zal qiladigan ma'naviy ozuqani oilasida olgan farzandning o'z baxti va kamoli yo'lidan og'ib ketishiga ishonish qiyin. Ham jismonan, ham ma'nan va ruhan sog'lom odam turli g'alamislarning kirdikorlariga uchmay o'z yurti, Vatani va xalqi manfaati yo'lida halol mehnat qiladi.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, sog'lom turmush tarzini kundalik hayot kechirishning asosiy me'zoniga aylantirishga bog'liq tushuncha va tasavvurlar oiladan boshlanadi. Bu g'oyalarning xalqimiz qon-qoniga singib ketganligi eng avvalo oilalarda saqlanib kelayotgan ijobiy an'analarda, ota-onadan farzandlarga singdiriladigan o'gitlarda, qarindosh urug'chilik aloqalaridagi mehmonavozlik va ushbu jarayonda orastalik va ozodalik tamoyillariga rioya etilishlarida, mahalla-ko'yda rioya etiladigan tartib-qoidalar, xususan, ko'chani, har bir xonadonni ozoda va sarishta saqlash odatlariga tayangan qo'ni-qo'shnichilik muomalalarida o'z aksini topadi.

Sog'lom turmush tarzini falsafiy-ma'naviy, psixologik mezonlarini quyidagicha ta'riflash mumkin:

- oilada, ta'lim maskanlari va jamoat joylarida yosh qizlar va ayollarning kiyinishlariga alohida e'tiborni qaratish;

- oilada va jamoat joylarida yoshlarning muomala madaniyatini shakllantirishda sog'lom turmush borasidagi xalqimizning o'ziga xos an'analari va qadriyatlarini, otalar va momolar o'gitlarini alohida sog'lom ma'naviyatli oilalar tajribasini ibrat omili sifatida keng targ'ib etish;
- yoshlarni sportga, jumladan, oilaviy sportga ijobiy munosabatini shakllantirishda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan tadbirlar, oilaviy sportchilar an'alaridan foydalanish;
- oila a'zolarida, birinchi navbatda yoshlar orasida hayot mohiyatini anglash, umr qadriyatini e'zozlash, hayotiy faoliyatni oqilona tashkil etish madaniyatini shakllantirish;
- islom falsafasidagi orastalik va ozodalik tamoyillarini omma orasida targ'ib etish orqali suv, havo, er va suv qadriyatlari borasida ijtimoiy fikrni shakllantirish.

Xulosa qilib aytganda, salomatlik falsafasining shaklanishi sog'lom va xalqchil marosimlar, urf-odatlar va milliy doimiy qadriyatlar bilan bevosita bog'liq. Sog'lom turmush tarzi hayot kechirishning maqsadga muvofiq ravishda tashkil etish, umr qadrini anglab etishni nazarda tutadi. Sog'lom turmush tarzi yomon illatlar bilan kelisha olmas ekan, oilaviy sharoitni yaxshilash, ya'ni undagi ma'naviy-psixologik muhitni barqarorlashtirish muhim vazifalardan bo'lib qolaveradi. Shu tufayli ham odamlarga nafaqat davlat, nodavlat va jamoat tashkilotlarining, balki oilaning dolzarb muammosi ekanligini fuqarolar ongiga etkazish lozim. Zero, Prezidentimiz ta'kidlaganlaridek, "Sog'lom xalq, sog'lom millatgina buyuk ishlarga qodir". Xalqimiz sog'lig'ini asrash esa har bir kishining insoniy muqaddas burchi bo'lib qolaveradi.

Ma'naviy tarbiya insonlar hayotida hamisha bosh mavzu bo'lib kelgan. Chunki ma'naviyatsiz inson bo'lmaydi. Ba'zi bir insonlarning ma'naviyati yuksakroq, ba'zilariniki pastroq bo'ladi. Ya'ni har bir shaxs, har bir oila, har bir jamoa va hatto har bir kasb egasining o'ziga xos shakllangan ma'naviyati bo'ladi.

“Ma`naviyat” soʻzi arabcha soʻz boʻlib, “ma`no” feʼlidan olingan ruh, ong, idrok, ruhiy holat, dadillik jasorat, xususiyat, mohiyat, gʻamxoʻrlik, did kabi bir qancha ma`nolarni anglatadi. Ma`naviyat – insonning ma`lum darajadagi jismoniy, aqliy, axloqiy va ruhiy balogʻati va dunyoqarashini ifodalovchi tushunchadir. Ma`naviyat tushunchasi oʻz ichiga madaniyat, ma`rifat va mafkura tushunchalarini singdirsada, u ancha keng ma`noni qamraydi. Ma`naviyat inson hali xat-savodli, ma`rifatli, madaniyatli boʻlib ulgurmasdan oldinroq uning tili, ongi, tafakkuri bilan dunyoga keladi¹.

Ma`naviyat va madaniyat egizak va mushtarak tushunchadir. Insonda ong shakllanib, tilning paydo boʻlishi madaniyatning ilk qadamlari sanaladi. Odamzod hali ma`rifatli boʻlmasdanavval rasm chizishlari, kuy va ashula aytishi, diniy rasm-rusumlarni bajo keltirishning oʻzi madaniyatning dastlabki shakllanishi va rivojlanishidan darak beradi. Soʻngra insoniyat oʻz tarixiy taraqqiyot yoʻliga tushib olgach, asta-sekin ma`rifatli boʻla boshlaydi va madaniyatning yuksak pogʻonalariga koʻtariladi. Bu jarayon, shubhasiz ma`naviyatni madaniyat va sanʼatdan, ma`rifatdan ajralmagan holda birga va oʻzaro aloqadorlikda boʻlishini, ma`lum dunyoqarash bilan mustahkamlanishini taqazo etadi. Inson borki, uning ma`naviyati bor, bu ma`naviyat uning madaniyati, ma`rifati va ma`lum darajada mafkuraga, dunyoqarashga eʼtiqodini belgilaydi. Shu oʻrinda Prezidentimiz Islom Abdugʻanievich Karimovning ushbu soʻzlarini keltirish joizdir: - “Bizning ma`naviyatimiz asrlar davomida million-million kishilar taqdiri bilan shakllangan. Uni oʻlchab ham, poyoniga etib ham boʻlmaydi. U inson uchun butun bir olam, yer, oila, ota-ona, bolalar, qarindosh-urugʻlar, qoʻni-qoʻshnilar, xalq, mustaqil davlatimizga sadoqat, insonlarga hurmat, ishonch, xotira, vijdon, erkinlik – ma`naviyatning ma`nosi juda keng”.

Ana shu keltirilgan fikrlardan kelib chiqib, ma`naviy tarbiyaning inson hayotidagi ruhiy omili sifatida baholashlikni taqazo etadi. Bunda madaniyat va sanʼatning oʻrnini alohida baholash va tahlil etish zarurdir. Insoniyat tarixiga nazar

¹ Maxmud T. Manaviyat asoslari. T.U. “Uzbekiston” 1999y.

tashlansa barcha davrlarda madaniyat va san'at ana shu davr g'oyasiga, mafkurasiga xizmat qilib kelgan. Buning sababi hukmron mafkuraning madaniyat va san'at ustidan o'tkazgan tazyiqidir. Buning oqibatida butun bir xalqlar o'z madaniyatlarini to'la namoyon qilishga imkon topa olmaganlar. G'oyalar kurashi silsilasida shunday bir g'oya borki, bu milliy g'oya bo'lib, bu g'oya har bir millatning ongi va tafakkurining mahsuliga aylanadi. Ya'ni shu millatning o'zi anglashi, ma'naviy merosini avaylab asrashi, milliy madaniyati va san'atiga munosabati, milliy urf-odatlariga bo'lgan hurmati va unga amal qilishi singari qator tamoyillarda o'z aksini topadi.

Xalqimiz ma'lum bir muddatda totalitar tuzum deb atalmish "sotsialistik realizm" g'oyasi ta'sirida o'zlarining g'oyasiga, madaniyat va san'atning to'liq namoyon qilishlariga imkon topolmadilar, lekin o'zligini yo'qotmadilar. Milliy tafakkurini, ajdodlardan qolgan ma'naviy boylklarini, o'z dinlarini saqlab qoldilar. Madaniy meroslarini, milliy san'atlarini barcha iurlarini xozirgi va kelgusi avlod uchun asrlar silsilasidan olib o'tdilar va bugungi muborak mustaqillik kunlariga etib keldilar. Manda endi xalqimiz ongiga barkamol inson tarbiyasida asosiy mezon bo'lgan ma'naviy madaniyatni, madaniyat va san'atning o'rmini va uni milliy istiqlol g'oyasi ruhida singdirishni asosiy omil deb bilmoqdalar.

Bugungi kunimizda ma'naviy tarbiyada madaniyat va san'atning, ma'rifatning o'rmini e'tirof etgan holda, bu yo'lda asosiy manba sanalmish madaniyat va san'atning targ'ib qilish tamoyillariga alohida e'tiborni qaratish zarurligini respublikamiz Prezidenti Islom Abdug'anievich Karimov o'z asarlarida batafsil bayon etib berganlar va shunday izohlanadi: "Endigi vazifamiz shundan iboratki, milliy istiqlol g'oyasi tushunchalari asosida keng jamoatchilik, ziyolilarimiz, ilm-fan va madaniyat namoyondolari, avvalo ma'naviy-ma'rifiy soha hodimlari milliy mafkurani takomillashtirish hamda uning asosiy tamoyillari

odamlar ongi va qalbiga singdirishga qaratilgan ishlarni yangi bosqichga ko'tarilishi zarur¹".

Ushbu fikrlardan kelib chiqqan holda madaniyat va san'atning o'rnini yana bir bor tahlil qilish va uning ta'sir kuchi zahirida ma'naviy tarbiyani, milliy istiqlol g'oyalarini xalqimiz ongiga singdirish asosiy vazifalardan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Bu borada quyidagi yo'nalishlar bilan ta'sir etish ko'zda tutiladi:

1. Murakkab va shonli tariximizning yorqin sahifalarini ochib berish.
2. Bugungi hayot voqeligini orzu-umidlarimizni aks ettiradigan adabiyot, kino, musiqa va tasviriy san'at asarlari yaratishga e'tiborni qaratish.
3. Yoshlarga ibrat bo'ladigan barkamol insonlar zamonaviy qaxramonlar timsolini yaratish.
4. Istiqlol mafkurasiga zid g'oyalarni ochib berishga qaratilgan asarlar yaratish.

Bularning barchasi milliy istiqlol g'oyalarini, ma'naviyat sarchashmalarini singdirish borasida asosiy tamoyillar bo'lib xizmat qiladi. Bunda albatta yuqorida ta'kidlanganidek, barkamol avlod tarbiyasida san'at va madaniyatning o'rnini alohida ta'kidlash joizdir. Ma'naviy tarbiyada diniy madaniyatning o'rnini alohida ta'kidlash zarurdir. Chunki o'n to'rt asrdan buyon xalqimiz asosiy ma'naviy tarbiyani diniy madaniyat orqali o'zlashtirib keladi. Bugungi kunimizda xalqimiz istiqlol sharofati bilan o'z diniga, o'zligiga yangidan qaytmoqda. Muqaddas dinimiz Islom dini milliy ma'naviyatimizning muhim asoslarimizdan biriga aylanadi. Bugungi kunda yoshlarimizni boy madaniy merosimiz, tarixiy an'analarimizga, milliy urf-odatlarimizga hurmat ruhida, yuksak ma'naviy fazilatli har tomonlama kamol topgan insonlar qilib tarbiyalashga katta e'tibor berilmoqda. Bu masala davlat ahamiyatiga molik vazifa deb tushunilmoqda. Komil inson deganda, har tomonlama yetuk, ichki dunyosi, tarbiyasi, pokligi, bilimi va malakasi, umuman ijobiy jarayonlarning barchasini o'zida mujassamlashtirgan

¹Karimov I.A. Uzbekiston XXI asr b'sag:asida: xavfsizlikka tahdid, barlarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. T.U "Uzbekiston" 1999y

inson tushuniladi. Zotan millatimiz tarixida shunday zoti komillar o'tishganki, ularning har birlari biz avlodlarga bitmas-tuganmas ma'naviy boylik qoldirganlar. Hozirda bu ziyo nurlaridan bahramand bo'lmoqdamiz.

Ma'naviy tarbiya isnon kamoloti yo'lidagi shunday bir vositaki, uni chetlab o'tish mumkin emas. Ajdodlarimizning boy ma'naviy merosi, ularning hayotiy tajribalari, yashash tarzlari, insoniy xususiyatlari komil inson tarbiyasining asosiy omillaridan sanaladi. Biz bu ma'naviy boyliklarni o'rgangan sari, fikrimiz charxlanadi, o'zimizni ajdodlarimizga yaqinroq sezamiz. Ulug' bobokalonlarimiz Imom at-Termiziy, Imom Buhoriy, Burxoniddin Marg'iloniy, imom Motrudiy, Alisher Navoiy singari allomalarning bizga qoldirgan ma'naviy boyliklari, buyuk Sharq miniatyura san'ati, ijrochilik san'atining o'lmas merosi maqomlarimiz, an'anaviy mumtoz musiqamiz, mumtoz adabiyotimizning o'lmas asarlari, komil inson tarbiyasida, ma'naviy tarbiyada muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Biz ulug' ajdodlarimizning ma'naviy boyliklarini o'rgana borganimiz sari ularga yaqinlik sezamiz. Bularning barchasi bizni komillikka yetaklaydi, ma'naviy tarbiyamizni, fikrimizni boyitadi, kelajakka ishonch bilan qarashga undaydi. Ma'naviy boylik insonning o'zida, ongida, fikrida mujassamlangan tafakkur me'zoni sanaladi. Insonni moddiyatga qancha ehtiyoji bo'lsa, ma'naviyatga ham shuncha ehtiyoji bor, ma'naviyat insonning ichki ehtiyoji, ko'ngil bilan bog'liq tushuncha.

Ma'naviyat o'z ichiga mafkurani, dunyoqarashni oladi. Inson borki uning ma'naviyati bor, bu ma'naviyat uning madaniyati, ma'rifati va ma'lum mafkuraga, dunyoqarashga e'tiqodini, belgilaydi. Madaniy taraqqiyot jarayonida turli sohalarda axloqiy madaniyat, falsafiy madaniyat, badiiy madaniyat degan tushunchalardan keng foydalaniladi. Madaniyatning eng murakkab, insoniy qobiliyatlarni, talantni, uning ijodiy imkoniyatlarini ifodalovchi formasi ma'naviy madaniyat bo'lib, u ijtimoiy ongni san'at, axloq, falsafa, sotsiologiya kabi turlarni o'z ichiga oladi. Bularning har biri o'ziga xos olamdir. Masalan badiiy madaniyat merosini olaylik. Badiiy meros avvalo xalq og'zaki ijodini o'z ichiga oladi. Bunda xalq og'zaki ijodi etakchi o'rinni egallaydi. Chunki u faqat badiiy ijod bo'lib

qolmasdan, balki har bir xalqning ma'naviy taraqqiyotida muhim bosqichni ham tashkil etadi. Xalq musiqasi, o'yinlari va havaskorlik san'atining boshqa turlari, rang, tasvir va grafika, haykaltaroshlik va hunarmandchilik san'ati singari san'atning qator turlari badiiy merosda katta o'rin egallaydi va har bir xalq san'atining rivoji uchun muhim manba bo'lib xizmat qiladi. Xalq badiiy hunarmandchiligi: kulolchilik, zargarlik, kashtachilik, gilamdo'zlik, misgarlik va boshqalar ham badiiy madaniyatda va uning taraqqiyotida muhim o'rin tutadi. Rang-barang professional san'at va uning nazariyasi ham badiiy merosning qismlaridir. Bunda mazkur xalqning buyuk dahosini ifodalagan buyuk shoirlar, musiqachilar, rassomlar, me'morlar, qo'shiqlarning mohir ijrochilari va boshqalarning ijodi qimmatlidir. Badiiy ma'naviyatning barcha yo'nalishlari bir-biri bilan uzviy bog'liq holda rivojlanadi.

Madaniyat va san'atning haqiqiy ijodkori xalqdir. Xalq o'zi yaratgan boyliklarni, merosni avaylab asraydi, chunki bu boylik, meros uning o'zi uchun, kelajak avlodlar uchun xizmat qiladi. Ma'naviy tarbiyada madaniyat va san'atning o'rnini baholar ekanmiz yuqoridagi fikrlarni mujassamlashtirgan holda uning mazmun va mohiyatini tushunishlikni taqazo etadi.

Mustaqillik sharofati bilan xalqimiz o'z ma'naviy boyligiga to'la ega bo'ldi. Ma'naviy merosimiz ajdodlarimiz, ota-bobolarimizdan bizgacha etib kelgan ma'naviy boyliklar – siyosiy, falsafiy, huquqiy va diniy qarashlar, axloq-odob me'yorlari, ilm-fan yutuqlari, tarixiy, badiiy va san'at asarlari majmuidir. Bularning barchasi xalqimiz ongini yangicha tafakkur bilan shakllantirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Zero, bularning barchasi xalqimizning komilikka yetakliydi. Ma'naviy tarbiyada madaniyat va san'atning o'rnini ana shunday baholash zarur bo'ladi va bu sarchashmalar insonlarning qalbiga ziyo nurini sochaveradi.

II BOB. NOGIRONLIKKA EGA BO'LGAN SHAXSLARNI PARVARISHLASH VA IJTIMOY HAYOTGA QAYTARISH TAMOYILLARI

2.1. Nogironlikka ega bo'lgan bolalarni ma'naviy hayotdagi o'rni va ijtimoiy mohiyati

“Oxirgi bir necha o'n yillikda cheklangan imkoniyatli odamlarni taqdim etuvchi tashkilotlar nogironlik muammosiga muvofiq ravishda inson huquqlari asoslangan yondashuv va atrof-muhitni tushinishga asoslangan yondashuvni rivojlantirdilar. Har ikki yondashuv nogironlikning ijtimoiy modeliga asoslanadi. Bu erda diqqat markazida inson huquqlari va barcha odamlarning jamiyat hayotida faol ishtirok etishi mumkin bo'ladigan o'zgarishlar zaruriyati muammosi turadi. Bu modellar ichida nogironlarni individual cheklashlar emas, balki jamiyatning ularni jamoatchilik hayoti jarayonidan chetda qoldiradigan tarzda tuzilishi zaiflashtirishi haqidagi fikr ta'kidlanadi. Shu asosda cheklangan imkoniyatli odamlar tashkiloti yanada ko'proq o'z huquqlari uchun kurashishga birlashmoqdalar”¹.

Dunyoda nogironlik tushunchasini sharhlash va izohlash to'g'risida uzoq yillardan beri olimlar orasida keskin tortishuvlar davom etib kelmoqda. Bu borada insonlar uchun yaqqol ko'rinib turgan hodisa – nogironlikni qanday ta'riflanishi, ularning turli-tuman ko'rinishlariga jahon ommasining tushunchasi natijasida barcha qarama-qarshiliklarning ko'rinishlari jiddiy tus olinishi ajablanarli ko'rinishi mumkin. Bunday ko'rinish bahs-munozaralarga boy bo'lib, u yoki bu sisat va rivojlanayotgan davlatlarda moddiy ehtiyojlar sharoitida yashovchi imkoniyati cheklangan odamlar bilan ishlash amaliyotining shakllanishi uchun shunday katta ahamiyatga ega ekanini umumiy tushuntirish deb anglashni taqazo etadi.

¹ Evropa ittifoqining delegatsiyasi va turli xizmatlar uchun nogironlik va rivojlanish yuzasidan tushuntirish xati. Mart, 2003 yil

Nogironlik nima?

Inson tug'ilishida barcha a'zolari yetarli darajada normal holatda tug'lsa jamiyatning to'liq a'zosi tug'ildi degan ko'nikma saqlanib qolgan. Yangi tug'ilgan bolada nimaningdir yetishmasligi natijasida bola nogiron tug'iladi va nogironlik uning fiziologik ko'rinishda tanasida aks etadi yoki bosh miya funksiyasida, soqov bo'lib qolgan holatdagi o'zgarishlar natijasida nogironlik deb atalmish doimiy tushunchani olib keladi. Nogironlikning doimiy tushunchasi inson salomatligi bilan nimadir "joyida" emasligiga qaratilgan. Bunday qarash nogironlikni jismoniy buzilishiga tenglashtirib qo'yadi. Jismoniy imkoniyati cheklanganlikka ko'zi ojizlik, karlik, odam odam qiynalib yoki butunlay harakatlanmaydigan, gapirmaydigan turli holatlar, psixik kasalliklar, shuningdek, Daun sindromi va epilepsiya holati taaluqlidir. Jismoniy imkoniyati cheklanganlikka bunday tibbiy qarashni ko'pincha nogironlikni tibbiy modeli deb ataydilar. Umuman olganda, qachonki nogironlik shaxs sog'ligi muammosi sifatida kontseptuallashtirilsa, imkoniyati cheklangan odamlar ijtimoiy jihatdan qabul qilinadi va ular o'zlarini barcha boshqa narsalar orasida qandaydir umidsiz, nome'yoriy sifatida, har turli tibbiy va reabilitatsion intervensiyalar uchun patsientlar va yoki tobe ob'ektlar kabi anglaydilar. Kimdir nogironlikni tibbiy prizma orqali ko'rib chiqayotgan paytda jismoniy cheklashi bo'lgan odamlar bilan ish olib borishga to'g'ri keladigan nohush ijtimoiy oqibatlarning mavjudligi tan olinishi mumkin, ushbu paradigma ichida ijtimoiy hayotdan chiqarish ko'p hollarda nogironlik iz qoldirgan cheklash natijasi sifatida ko'riladi. Modomiki, bunday holda muammo toza tibbiy deb ifodalanar ekan, unda shunga muvofiq u asosan davolash va reabilitatsiya orqali hal qilinadi; reabilitatsiya ba'zi hollarda maxsus institutsional tashkilotlarda yakka lab qo'yishni talab qiladi. Bunday ish imkoniyati cheklangan odamlarga g'amxo'rlik qilish va himoyalashni ta'minlash maqsadida maxsus professionallar tomonidan institutsionalizm hollaridagi kabi yoki me'yoriy ishlashini tiklashni ta'minlash uchun olib boriladi.

Funksional buzilishlarga ega bola boshqa barcha bolalar qatori mehribonlik va yaqinlikka insonlar bilan muloqotda bo'lishga ehtiyoj sezadi. Hech qaysi vrach yoki boshqa inson vaziyatni qiyinlashtirmasligi ota-onalar tushuna olmaydigan yoki amalda qo'llab-quvvatlamaydigan uzoqni ko'zlovchi qarorlar qabul qilishga shoshilmasligi kerak. Biz shuni bilamizki bolalarni intellektua va harakat funktsiyalarini, shuningdek, hissiyot va shaxsiy rivojlanishida ota-onalar mehribonligi katta o'rin tutadi. Aynan shuning uchun vrachlar hamjamiyati va boshqa tashkilotlari bunday oilalarga maslahatlar berib borish zamirida ushbu yetuk me'yorlarga va ushbu psixologiyaga katta e'tibor bilan yondoshishlikni taqazo etadi. Agar nogiron bola ilgorigidek o'z ota-onasi bilan yashay olmasligi va unga mos oila topilmayotganligi aniqlansa, unda bolani iliq muhitli bolalar xizmat ko'rsatuvchi persional va ota-onalar doimo yaqin munosabatda bo'ladigan katta bo'lmagan guruhli yashash uylariga joylashtirishi kerak.

Xizmatchilarni almashinuvi minimal bo'lishi lozim. Chunki aynan shu yo'l bilan bolani har tomonlama himoyasini va ota-ona o'rnini bosuvchi insonlar bilan muloqotga kirishishi imkoniyatlarini ta'minlash bo'ladi.

Funksional buzilishli bola o'zining hissiyot taassurotlarini boyituvchi bilim va malakalarini sug'aruvchi asosga ega muhitda o'ziga xos o'sish va rivojlanish ehtiyojiga ega. Xizmatchilarni bolalarga nisbatan me'yorlarga zid munosabatini bolalarda esa, yashashni noto'g'ri strategiyasini shakllantiruvchi yirik muassasalarda ushbu zaruriy ehtiyojlarni qondirib bo'lmaydi. Bunday muassasalarda xizmatchilarni aniq bolalarga emas, balki aniq masalalarga yo'naltirgan amaliyoti ko'p hollarda muvaffaqiyatsizlikka uchragan. Bunda bir xizmatchi bir qancha bolalarni parvarishlashga mas'ul bo'ladi, so'nggi hollarda xizmatchi amaliyotni avtomatik aylanmasi bilan emas, balki, bolalar ehtiyojlari bilan hisoblanadi. Bolalarni guruhli yashash uylari – maktab, yotoqxonalari, faqatgina zaruriy jismoniy parvarishni ta'minlash kerak emas. Avvalambor, u bolalar uchun o'z uylari bo'lishi kerak, ikkinchidan bolalarga rivojlanishi stimullarini taqdim etishi kerak va uchinchidan, jamiyat bu bolalarga oddiy

bog'cha va tayyorlov maktablariga va ularni rivojlantiruvchi dasturlarga yo'l ochib berishi kerak. Jismoniy nuqsonga ega nogiron bolaga yangi taassurotlarni ochishga to'sqinlik, unda bu bolaga nafaqat davolovchi, jismoniy tarbiya bilan shug'ullanishigina emas, balki uni harakatlarini kuchaytiruvchi texnik vositalar imkonini ham berish lozim. Agar bola ko'rish nuqsoniga ega bo'lsa, ma'lum darajada ishonchni yaratishga yo'naltirilgan alohida xatti-harakatlar qilishi lozim. Ular bolani harakat malakalarini egallashga va qo'llashga qo'rqqanlikni va atrofdagilarni tushunishga boshlashni o'rgatadi. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolaga keladigan bo'lsak, ular bilan muloqot emizikli vaqtdan o'rgatilishi kerak. Bola hayotini birinchi yilida alohida imo-ishoralar yordamida keyinchalik esa, to'liq imo-ishora yordamida amalga oshiriladi.

Aqliy buzilishga ega bo'lgan bolalarda bo'lishi mumkin bo'lgan qo'shimcha funktsional buzilishlar, serebal falaj yoki boshqa harakat funktsiyalarini – ko'rlik, karlikni oldindan inobatga olish va ularga ta'sir etish lozim. U aqliy qo'rqinlikni chuqurlashini oldini olish zarur. Shu yerga autizmga ega bo'lgan bolani parvarishlashga qo'yiladigan asosiy talablar ham kirib ketadi. Gapira olmaydigan soqov nogiron bolalar bilan ishlash alohida kasb etadi. Bu bolalar alohida yondoshishlik, vrachlar bilan maslahatlashgan holda bolaning yoshi va rivojlanishidan kelib chiqib tashxis qo'yilishi va ularni guruhlarga bo'lgan holda har bir bolani layoqati asosida tarbiyalash lozim. Bunda lagoped o'qituvchining o'rnini alohida baholash kerak. Lagoped o'qituvchi o'zining barcha bilim va tajribalarini nogiron bolaning yoshi va entizusti orqali amalga oshirishi talab qilinadi.

Umuman olganda nogironlikka ega bo'lgan bolalarni ijtimoiy hayotdagi o'rinlarini to'g'ri baholagan holda ularning hayotga qaytarishi normal hayot kechirishga undashi ijtimoiy ish hodimi mas'uliyatlari vazifalaridan biridir.

Nogironlikka ega bo'lgan shaxslarni parvarishlash va ijtimoiy hayotga qaytarish tamoyillari

Bu borada ilmiy va nazariy izlanishlar avvalo, evropa olimlari tomondan amalga oshirilgan. Ular asosan normallashtirishi tamoyili asosida ilmiy ish olib borganlar. Normallashtirishi tamoyili turar joy standartlariga masalan, maktab yotoqxonalari, jamoa bo'lib yashash xonadonlari va boshqa xonadonlarda quyiladigan talablar bilan bir xil bo'lishi lozimligini anglatadi. Bu funktsional buzilishga ega insonlar turar joyi xech qanday vaziyatda ular rozi bo'lgan insonlar sonidan ortiq bo'lgan insonga mo'ljalanihi kerak emas.

Jismoniy buzilishga ega insonlar uchun ijtimoiy interfaollikni va harakatlanishni osonlashtiradigan maxsus texnik moslamalari mavjud muhim zarur.

Normallashtirish tamoyili quyidagicha ta'riflanadi: intellektual va boshqa shaxslar uchun kundalik mavjudlikni va hayot sharoitlarida shunday qulayliklar yaratiladiki, ular jamiyatda qabul qilingan shakllarga ancha yaqin yoki ular bilan deyarli mos keladi. Boshqalar singari nogiron insonlar ham haqli bo'lgan va ushbu tamoyil qamrab oladigan normal kundalik hayotni tashkiliy qismlari yoki komponentlari quyidagicha ta'riflanadi:

- normal kundalik ritmi;
- normal xaftalik ritmi;
- normal yillik ritmi;
- hayot tsikli kechishini normal shakllari;
- hurmat va tanlash huquqi;
- ushbu madaniyat uchun xos bo'lgan normal hayot shakllari;
- har bir mamlakat uchun xos bo'lgan normal iqtisodiy shakllar va huquqlar;

- ushbu jamiyat uchun xos bo'lgan normal turmush tarzi va atrof muhitga qo'yilgan talablar.

Normallashtirish tamoyili ushbu madaniyatda mavjud bo'lgan normal hayot ritmi, amaliyoti shakllari va nogironlarni yashashi, o'sishi va rivojlanishiga munosabatlarini ta'sirini tushunishga asoslanadi. U shuningdek, ushbu ijtimoiy sharoitlar va madaniyat shakllari istalgan ijtimoiy muhitda, barcha jamiyatlarda qabul qilingan inson huquqlariga mos ravishda nogironlarni parvarishlashga yo'naltirilgan konkret odamlar uchun ko'rsatma sifatida qo'llanilishini ko'rsatadi. Normallashtirish tamoyili tibbiyot, pedagogika, ijtimoiy, siyosiy va qonunchilik ishlari bilan shug'ullanadigan insonlar uchun yo'l boshchilik vazifasini o'tashi lozim. Insonlar biror qaror qabul qilib, unga asoslanib harakat qilganda, natijalar ko'p hollarda noto'g'ri emas, balki to'g'ri bo'lishi lozim.

Normallashtirish tamoyili aqliy buzilishga ega bo'lgan barcha insonlar uchun, ulardagi orqada qolishning yengil yoki og'irligidan hamda ular dunyoning qayerida yashashlaridan qat'iy nazar barcha uchun taaluqlidir. U barcha jamiyatlarda va kattalar guruhlarida qo'llaniladi, u shuningdek, individual rivojlanishga yoki jamiyatdagi o'zgarishlarga moslashishi mumkin.

Normallashtirish tamoyillarini qo'llanilishi aqliy buzilishga ega bo'lgan shaxslarning "Normal" bo'lib qolishlariga olib kelmaydi, biroq uning maqsadi ularning yashash sharoitini funktsional buzilishlarini inobatga olgan holda qanday yaxshilanishini ko'rsatishdan iboratdir. Normallashtirish tamoyilini shakllantirish vaqtida avvalom bor imkoniyati va qobiliyatlarni emas, balki buzilishlarni ko'ra oladigan tizim nomlangan. Bu tizim istalgan "kasalxonalar", yopiq muassasalarni va ildizlarni yuzaga keltiradi.

Normallashtirish tamoyili barcha funktsional buzilishlarga ega bo'lgan, kelib chiqish sabablaridan qat'i nazar oilalardan, jamiyatdan, madaniyatidan mahrum bo'lishi xavfi bo'lgan insonlarga tegishli bo'lib, bu tamoyil ularning reabilitatsiyasi va ijtimoiy integratsiyasi uchun xizmat qiladi.

Integratsiyalash – bu insonga kuch baxsh etadigan va uni yuksaltiradigan jarayondir. Agar u to'g'ri tashkil qilinsa – u nogiron bolaning kuchliroq namoyon bo'lishiga va qadr-qimmat hissini salmog'ini oshishini beradi. Shularni e'tiborga olib integratsiyalash imkon qadar maksimal darajada qo'llanilishi lozim. O'zlarini ajratib qo'yilganlar singari sezmaslik uchun do'stlar orttirish va ular bilan vaqt o'tkazish, ayniqsa, bolalar uchun juda muhimdir.

Normallashtirishni tashkil etish

Normallashtirish – funksional buzilishlarga ega bo'lgan shaxslarga nisbatan imkon qadar normal kundalik ritmni tashkil etishni anglaydi. Bu degani inson harakat doirasida va rivojlanishida sezilarli orqada qolish bo'lganda ham krovatdan o'rnidan turib kiyinishi zarurdir.

Normal kundalik ritm shuningdek, o'z tengdoshlaridan kichik uka va singillaridan ertaroq uxlash zaruriyatini yo'qligini anglaydi va bu faqat xizmat ko'rsatuvchilarning yetishmaslidandir. Atrof muhit ham shunday tuzilishi kerakki, unda konkret inson uchun shaxsiy kundalik ritmi ham e'tiborga olinishi kerak: bu esa ba'zida guruh tartibidan chetga chiqish, uni buzish imkoniyatini mavjudligini anglatadi.

Normal kundalik ritmning yo'qligi yirik yopiq muassasalarda nogironlikni shakllanishini yaqqol namoyondasi bo'la oladi: u yerda tartibga nogironlikni shakllanishini imkoniyati bo'lmaydi. Qat'iy intizom va tartib barchada kuchsizlik va yordamga muhtojlik hissini vujudga kelishiga olib keladi. Yangi muhitda yakka tartibdagi mashg'ulotlarni olib borilishi hatto iqtisodiy jihatdan ham yaxshi natijalarga xizmat qilishi mumkin. Shvetsiyadagi yirik yopiq muassasalarda o'tkazilgan eksperimental ish natijalari shuni ko'rsatadiki, ushbu dasturni qo'llanilishi natijasida ijtimoiy natijalarga olib keldi.

Normal kundalik ritmda yashash uchun pedagogik metodlarni qo'llab kundalik hayotda zarur bo'lgan turli faoliyat turlariga, ijtimoiy malakalarga alohida

e'tibor berish lozim bo'ladi. Ular bilan malakalarini egallashdagi aniq qiyinchiliklarga moslashish bo'lishi lozim.

Og'ir nuqsonlarga ega nogiron bola va uning oilasi yoki o'z yaqinlari bilan yashovchi qo'shimcha nogironlikka ega bo'lgan katta yoshdagilar iloji boricha normaga yaqin kundalik ritmga ega bo'lishlari uchun ko'p hollarda maxsus malakaga ega bo'lgan uy xizmatchisi tomonidan qo'llab-quvvatlinishi talab etiladi. Barcha nogironlar kun davomida tayyorlov yoki oddiy maktablarga borishlari, xizmatga yoki biror mashg'ulotlarga qatnashishlari uchun uydan chiqish imkoniga ega bo'lishlari kerak.

"Normal kundalik ritm" tushunchasi yopiq muassasalarning kamchiliklarini bo'rttirib qo'yadi va yopiq muassasalarda yashovchi funktsional buzilishlarga ega insonlarni ochiq jamiyatdagi ehtiyojlarini ko'rsatadi.

Bu borada O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan ishlarga alohida yondoshish zarur bo'ladi. Nogironlikka ega bo'lgan boshlang'ich sinf o'quvchilarini parvarishlash va ijtimoiy hayotga qaytarish tamoyillari, respublikamizda alohida yondoshish orqali amalga oshirilmoqda. Nogironlikka ixtisoslashgan maxsus maktab intenatlar faoliyati buning yaqqol misolidir. Ushbu maktablarda olib borilayotgan ishlar, qadriyatlarimizga mos ravishda, bag'rikenglik, bolajonlik, nogironlarga e'tibor nuqtai nazaridan amalga oshirilmoqdaki, bu borada hukumatimizning qator qarorlari va tadbirlarida o'z ifodasini topgan. Nogiron bolalarni ijtimoiy hamda ma'naviy ruhda tarbiyalash va ularga alohida g'amxo'rlik qilish alohida dastur va loyihalar orqali amalga oshirilmoqda.

2.2.O'zbekistonda ijtimoiy ish boshqaruvi borasida yaratilgan shart-sharoitlar va nogironlikning ijtimoiy modeli

O'zbekiston mustaqilligi yillarida ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatning tubdan o'zgarishi bilan aholi ijtimoiy himoyalash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Aholini ijtimoiy himoyalash mexanizmlarini yaratishdagi asosiy vazifalardan biri – bu ijtimoiy boshqaruvda ijtimoiy ish sohasini nazariy va amaliy jihatdan rivojlantirishdir. Ijtimoiy ishda boshqaruv ijtimoiy boshqaruv turlaridan biri bo'lib, ushbu boshqaruvda ijtimoiy ish ob'ektini, albatta, yordamga muhtoj inson va guruhlar tashkil etadi. Demak, boshqaruv mazmun jihatdan nafaqat ishlab chiqarish jarayonini, balki insonlar va guruhlar, ya'ni "ijtimoiy ob'ektlar"ni ham qamrab oladi. "Ijtimoiy ob'ektlar" o'zining murakkabligi, turli shaxsiy va xulqiy xususiyatlarga egaligi hamda kutilmagan harakat va holatlarni yuzaga keltirishiga moyilligi bilan ham ko'p qirralikdir.

Ular ma'lum darajada individuallikka xos bo'lib, har xil va qarama-qarshi qiziqish, fikr va ehtiyojlarga egaligi bilan tavsiflanadi. Shuningdek, xatti-harakat va xulq-atvordagi yashirin holatni bevosita idrok etish, uning mohiyatini to'liq tushinish hamda tahlil etishda bir xil mazmun va mohiyatga ega bo'la olmaydi. Shu nuqtai nazardan ijtimoiy ob'ektlarni boshqarish va ular bilan shuni tashkil etish o'ta murakkab hisoblanadi. Bundan tashqari, bugungi kunda mamlakatimizda ijtimoiy ish sohasining o'zi amaliyotga to'liq joriy etilmagan, aholi esa bu soha haqida etarlicha ma'lumotga ega emas. aholini ijtimoiy himoyalash xatto rahbar xodimlar doirasida ham ko'p hollarda xayr-saxovat ishlarini amalga oshirish tushunchasi darajasida bo'lib, ijtimoiy yordam va qo'llab-quvvatlash kasbiy ijtimoiy ish tushunchasi nuqtai nazaridan to'liq idrok etilmayapti.

Shu nuqtai nazardan ijtimoiy ishda boshqaruvning o'ziga xos tomonlari va uning funktsiyalari hamda turlari haqida so'z yuritish maqsadga muvofiqdir. Ijtimoiy ish boshqaruvi – maxsus kasbiy faoliyat bo'lib, nafaqat tashkilot yoki muassasalar faoliyatining samaradorligini, balki yaxlit murakkab ijtimoiy

tizimning maqbul faoliyati hamda rivojlanishini qo'llab-quvvatlovchi vosita hamdir.

Ijtimoiy ish boshqaruvi o'z funktsiyasi va turlariga egadir. Ijtimoiy ish boshqaruvining funktsiyalari – bu ijtimoiy boshqaruv tashkilotlarining rahbariyati va ijtimoiy ish xodimi faoliyatining turlari, ulning o'zlari boshqarayotgan kishi – xodimlarga ta'sir o'tkazishlari kabilardan iboratdir. Ijtimoiy ish boshqaruvining umumiy funktsiyasi asosida quyidagilar ajratiladi: vaziyatni tahlil eta olish va natijalarni oldindan ko'ra olish, rejalashtirish va ehtiyojlarni baholash, ijtimoiy faollikka undash, koordinatsiya va ijtimoiy boshqaruv hamda kadrlar tayyorlash kabilar. Ijtimoiy xizmat, shuningdek. Rahbarlik faoliyati sifatida tashkilot va muassasalarni boshqarishdan ham iboratdir.

Ijtimoiy ish boshqaruvi aholini ijtimoiy himoya qilish tizimida yaxlit holda asosiy etakchi tashkilot yoki boshqa muassasalar tasarrufidagi alohida bo'lim bo'lishi mumkin. Ijtimoiy xizmat tashkilotlari o'z amaliy faoliyatlarini insonlar, ijtimoiy guruhlar duch kelgan qiyinchiliklarni bartaraf etishga yo'naltiradilar. Ushbu tuzilma ijtimoiy muammolarga duch kelgan kishilarga professional yordam ko'rsatish uchun tashkil etiladi.

Ijtimoiy xizmat tashkilotlari va ijtimoiy hodim faoliyatining asosiy mazmuni hamda holatlari quyidagilardan iboratdir:

- Ijtimoiy ish hodimlarining xizmat turlari mijozlarning yoki guruhlar muammolarining mazmuni, ya'ni yordam va qo'llab-quvvatlashning talab darajasi, faoliyat turlari (ta'lim, tibbiyot, kundalik turmush-tarzi, bo'sh vaqtini o'tkazish va h.k.)lardan kelib chiqqan holda tasniflanadi;
- Ijtimoiy xizmat hodimlarining faoliyati me'yoriy-huquqiy hujjatlarni hisobga olgan holda ishlab chiqiladi va begilangan qoidalar asosida amalga oshiriladi. Qoidalarda ijtimoiy xizmat tashkilotlarining maqsad va vazifalri, moliyalashtirish manbasi, xodimlarning ish majburiyatlari, ish jarayoni amal qilinishi lozim bo'lgan axloqiy tamoyillari aks etishi lozimdir.

Barcha ijtimoiy ishchilarni boshqaruvchilar deb hisoblasa ham bo'ladi, chunki ular nafaqat o'z mijozlari bilan to'g'ridan-to'g'ri ishlaydilar, balki ijtimoiy yordam ko'rsatishda ular tashkilotchi, boshqaruvchi vositachi sifatida ham chiqadilar. Ijtimoiy ishchi biron-bir tashkilotning hodimi bo'lishi bilan birga, shuningdek, rahbariyat bilan kelishilgan holda o'z faoliyatini amalga oshirsada, lekin u o'z tashabbusi bilan mustaqil harakatlarni amalga oshirishi ham mumkin. Buni qanday tushinish mumkin? Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, ijtimoiy ish hodimi nafaqat rahbariyat ko'rsatmalarni bajaradi, balki o'z faoliyatini mustaqil tarzda rejalashtiradi, tashkil etadi, boshqaradi, nazorat qiladi. Ushbu vaziyat bilan bog'liq holda aytish lozimki, boshqaruv borasida yaxshi bilimga, ko'nikma va malakalarga ega bo'lishi ijtimoiy ishchining asosiy kasbiy layoqatini va mazkur kasbiy faoliyatga layoqatliligi darajasini tashkil etadi.

Ijtimoiy xizmat tashkiloti rahbari va ijtimoiy ishchi vaziyatni boshqarishda o'zaro hamkorlikda ishlashlari zarurdir. Individual darajada boshqaruv key-menejment ya'ni, ijtimoiy ish xodimi ma'lum bir aniq vaziyatni hal etish jarayonida u mazkur vaziyatni hal etish bo'yicha boshqaruvchilik funksiyasini bajaradi, ayni vaqtda uning faoliyatni tashkilot rahbari tomonidan nazorat qilinadi hamda individual ravishda ish olib boriladi. Bu erda rahbariyat ijtimoiy ishchi quyidagi ishning murakkabligi darajasiga qarab uning ishiga ko'mak beradi, shuningdek, xodimning kasbiy rivojlanishi uchun sharoit bilan ta'minlaydi.

Ijtimoiy ishni boshqarishda quyidagi qoidalarga amal qilinishi maqsadga muvofiqdir:

- maxsuslik qoidasiga, ya'ni ijtimoiy xizmat ko'rstuvchi har bir tashkilot yoki muassasa o'zining yo'nalishlarini aniq belgilab oladi va o'z xodimlarini aynan shu yo'nalish bo'yicha kasbiy salohiyatiga egaligini inobatga olgan holda ishga qabul qiladi yoki qayta o'qishini tashkillashtirishi mumkin;
- integratsiya qoidasi, ya'ni turli maxsus harakatlarning muvofiqlashuvi. Ular turli daraja va yo'nalishdagi yaxlit boshqaruv jarayonini tashkil

etadi. Tashkilot yoki muassasa amalga oshirayotgan faoliyatning maqsadi, vazifalari hamda mijozning qiziqishlari integratsiya omili sifatida xizmat qiladi. Ijtimoiy xizmat tashkiloti o'z maqsadi va vazifalari hamda mijozning qiziqisharidan kelib chiqqan holda o'z loyihalarini boshqa ijtimoiy xizmat tashkilotlari, muassasalari yoki yuridik shaxslar bilan hamkorlikda olib boradi. Bu jamiyatdagi doimiy ichki va tashqi omillarning o'zgarib turishi vaziyatida, murakkab ijtimoiy tizimda aloqalarni o'rnatishi hamda tashkilotning o'z faoliyatini talab etilgan darajada tashkillashtirilishini ta'minlashi uchun muhimdir;

- vaqtni tejash qoidasi samarali boshqaruvning asosidir. Belgilangan maqsadga erishish nafaqat moddiy, moliyaviy resurslarga, balki yuzaga kelgan vaziyatga tezlik bilan adekvat munosabatda bo'lishga ham bog'liqdir. Ijtimoiy ob'ektlarga ko'rsatilayotgan yordam o'z vaqtida, qisqa muddat ichida va ijobiy holda amalga oshirilishi lozim. Shuningdek, ko'rsatilayotgan yordamning qisqa yoki uzoq muddatli, bir martali yoki doimiy bo'lishi mijoz bilan oldindan kelishilgan holda aniq belgilanishi lozim;
- ijtimoiy ish boshqaruvi qoidalari tarkibiga, albatta, tashkilot tomonidan belgilanishi zarur bo'lgan ustuvor ijtimoiy maqsadlar ham kiritiladi. Ijtimoiy xizmat tashkiloti yoki muassasa o'zi joylashgan hamda xizmat ko'rsatishi mumkin bo'lgan hudud aholisining ijtimoiy turmush tarzida sifat o'zgarishlarni kiritishi, ularning o'z hayotlari oldidagi ijtimoiy mas'uliyatini, hayotiy farovonligini oshirish kabi ustuvor maqsadlar qo'yilishi mumkin.

Ijtimoiy ish boshqaruvi jamiyatda mavjud bo'lgan ijtimoiy muammolarni hal etishda, yuzaga kelishi mumkin bo'lgan muammolarni oldindan ko'ri olish va bartaraf etishda ijtimoiy ko'mak jarayonining sifatli va manzilli bo'lishini ta'minlovchi professional faoliyatni tashkil etadi hamda boshqaradi. Shunday ekan, bugungi kunda aholini ijtimoiy himoyalashga ijtimoiy ish boshqaruvi nuqtai

nazaridan yondashuv maqsadga muvofiqdir. Zero respublikamizda ushbu tadbirlarni amalga oshirishda barcha shart-sharoitlar yaratilgan bo'lib, qonun ustuvorligiga dahldor holatda amalga oshirish ko'zda tutilgan.

Nogironlikning ijtimoiy modeli sifatida asta-sekin bir holatdan ikkinchi holatga o'tuvchi nogironlikka an'anaviy yondashuvni tanqid qilish Buyuk Britaniyaning imkoniyati cheklangan odamlar harakati ichida o'tgan asrning 70-yillarida yuzaga kelishni boshladi. Bu harakat individuallashtirilgan kontseptsionining radikal alternativasini taklif qildi. Unda ta'kidlanishicha, imkoniyati cheklangan odamlar noxush holatlarda o'zlarining kasalliklari tufayli emas, balki kamsitish va ijtimoiy quvish bilan bog'liqdir. Ijtimoiy modelning istiqboli nuqtai nazarida – bu ijtimoiy-siyosiy muammo. Bu o'z navbatida, olib borilayotgan siyosatning asosan yuqorida aytib o'tilgan to'siqlari, shuningdek, insoniy va fuqarolik huquqlariga urg'uning aniq yo'lga qo'yishga taaluqli ustivorliklarni tanlashda fundamental farqlarga olib keladi.

Individual “nome'yoriylik” va tibbiy modelga xarakterli bo'lgan dastlabki, davo to'g'risidagi boshlang'ich tasavvurdan farqli ravishda baribir implitsit tarzda u yoki bu jismoniy cheklashni “me'yoriylik” deb tan oldi. Bundan tashqari, tibbiyot yutuqlari imkoniyati cheklangan odamlar miqdorini kamaytirmasdi, aksincha, uni ahamiyatli ravishda oshirdi, shunchaki odamlar uzoqroq yashay boshladilar, biroq endi og'ir kasalliklar va jarohatlarda ko'proq yashovchan bo'lib qoldilar. Qaysidir ma'noda imkoniyati cheklangan odamlar proportsiyasi jamiyatning iqtisodiy farovonligida yaxshi indikator bo'lib qoladilar. Keskin akademik va siyosiy tortishuvlar ichida bo'lgani kabi cheklangan imkoniyatli odamlarning, ijtimoiy model harakteri va uning revilantligiga nisbatan, shuningdek, u yoki bu vaziyatda uni aniq qo'llash yo'llari to'g'risidagi jamoatchilik harakatlaridan tashqarida ham davom etmoqda.

Keng ma'noda nogironlikning ijtimoiy modeli iqtisodiy va madaniy to'siqlarga, shuningdek, ulardagi jismoniy yoki intellektual cheklashlar

mavjudligiga zararli oqibat sifatida qarovchi boshqa odamlar bilan to'qnashadigan atrof-muhit to'siqlariga markaz sifatida qarash demakdir.

Jismoniy cheklashni hayotning oddiy qismi, nogironlikni esa, kamsitish va jamoatchilik bilan bargalikdagi natija sifatida qarab, ijtimoiy model nogironlik tushunchasini "alohida ehtiyojli" tibbiy gettosidan ozod qilish yuzasidan kuchlanishni amalga oshirishga yordamlashadi va yangi qiyofaga kirgan siyosat hamda amaliyotni ishlab chiqishda nogironlik muammosini kiritishga ko'maklashadi. Garchi bu hali kelajakda ancha to'liq miqyosda sodir etilishi kerak bo'lsa-da, hozirdanoq davlat agentliklari bilan bir qatorda xalqaro agentliklarning ham rivojlanishi muammosi ustidagi ishning birmuncha katta kontekstiga nogironlik muammosini kiritish yuzasidan joriy fikrlari namunasi mavjud.

Ijtimoiy model cheklangan imkoniyatli odamlarni ularning teng huquqliligi va o'z huquqlari uchun kurashlariga uyushtirish uchun to'la masshtabda taqdim etiladi. Bu jarayonda ijtimoiy model jismoniy cheklangan odamlarni nafaqat tashqaridan yordam oluvchi passiv shaxs, balki o'z taqdirining ijodkorlari nafaqat tashqaridan yordam oluvchi passiv shaxs, balki o'z taqdirining ijodkorlari bo'lishlari lozimligi haqidagi g'oyani rivojlantiradi. Bu rivojlanishga butun dunyo bo'ylab davlat agentliklari tomonidan qabul qilingan va inson huquqlariga asoslangan yondashuv to'g'risidagi tasavvurga deyarli to'liq mos tutadi.

Jismoniy imkoniyati cheklangan odamlarga o'z shaxsiyat hayotini belgilash va malaga oshirishda etakchi rolni berib, ijtimoiy model barcha davlatlarda, ya'ni rivojlangan davlatlarda bo'lganidek, rivojlanayotgan davlatlarda ham qashshoqdanda qashshoq bo'lib qolayotganlarga ozod bo'lish uchun vositani taklif qiladi.

Ijtimoiy modelni yoqlash nogironligi bo'lgan odamlarni kiritgan holda sog'lig'i bo'yicha cheklashlar yuzaga kelishidan alohida ehtiyojlarning paydo bo'lishi sababini inkor qiladi. Sog'liqni saqlash xizmatlarini barobar olish insonning asosiy huquqlaridan biri hisoblanadi va toza ichimlik suvi bilan

ta'minlash, kasalliklarning oldini olish, harbiy intizomlarni to'xtashi, qashshoqlikni yo'qotish singari jismoniy zarar keltirishga yo'l qo'ymaydi.

Nihoyat, alohida ta'kidlash lozimki, ijtimoiy model tibbiy modelni tibbiy aspektlarni oshirgani uchun tanqid qilib hech bir tarzda tibbiy interventsiyalar zaruriyatini rad etmaydi.

Ijtimoiy model yuzasidan boshqa bir tanqidiy mulohaza shundan iboratki, u madaniy kontekst ayniqsa, shaxsiy huquqlarga qilingan urg'u ko'plab rivojlangan davlatlarda oilaviy va jamoatchilikka yo'naltirgan vaziyatlardan farq qiladi.

Nogironlikning ijtimoiy modeli nogironlik to'g'risidagi zamonaviy tasavvurlarga serqirra chaqiruvni o'zida aks ettiradi. Rivojlanish kontekstida qo'llansa, u jismoniy imkoniyati cheklangan odamlarning hayotida ijobiy o'zgarishga ko'maklashib, ular bilan ishlash amaliyoti va siyosatga o'zgartirish kiritishga potentsial tarzda qodir. Biroq inson huquqlariga asoslangan na bu model, na yondashuv sehrli tayoqcha bo'lolmaydi. Nogironlikni o'ta yengil qabul qilingan yangi paradigmasi bo'lishi mumkin, chunki bunday holda jamiyatimizda nogironlikka nisbatan qanchalik chuqur va qanchalik uzoq muddat salbiy tasavvur va yo'riqnomalar mavjud bo'lganini anglamaslik xavfi tug'iladi.

Yuqorida bildirilgan fikrlarning barchasi yevropada ya'ni rivojlangan davlatlar ijtimoiy modeliga ta'lluqlidir. Mustaqillikdan so'ng bizning respublikamizda nogironlikka nisbatan e'tibor alohida dasturlar, qarorlar asosida ijroviy kuchga egaki, jamiyatimizning har bir nogiron a'zosi o'zini kamsitilgan deb o'ylamaslik borasida ulkan ishlar amalga oshirilmoqda. Ayniqsa, bolalar nogironligiga alohida e'tibor berilmoqdaki, bu e'tibor Prezidentimizning tashabbuslari bilan turli ijobiy yo'nalishlar va tamoyillar asosida o'zining bo'y-basti bilan bu tashabbusga javob bermoqdaki, biz buni amalga oshirilayotgan ishlardan ko'rib turibmiz.

Xulosa

Buyuk istiqloq tufayli O'zbekistonda amalga oshirilayotgan barcha sohadagi samarali ishlarning bosh maqsad va tamoyili yangi erkin demokratik jamiyat qurish, insonparvarlikka yo'g'rilgan ijtimoiy va ma'naviy turmush tarzini yaratish va fuqarolarni huquqini kafolatlaydigan islohotlar o'tkazishdan iboratdir. Mamlakatimiz ijtimoiy siyosatining ustuvor va dolzarb yo'nalishlaridan biri kelajagimiz bo'lmish, yangi avlodni tarbiyalash, bolalarni muhofaza qilishga qaratilgan. Bolalar bizning kelajagimiz ekan, ular haqida ga'mxo'rlik qilish, barcha imkoniyatlarimizni ishga solib, millatimiz va rivojlanish yo'lida dadil qadamlar bilan borayotgan davlatimiz uchun har birimiz munosib hissamizni qo'shishlikni taqazo qilmoqda.

Bugungi kunda ma'lumki insoniyat qo'li bilan yaratilishi mumkin bo'lgan barcha narsalarni rivojlantirishni talab etmoqda. Ma'naviy sohada ham hali biz poyoniga yetmagan, bugungi kun taqazosi bilan yo'lga qo'yilishi zarur bo'lgan yo'nalishlar borligini unitmasligimiz kerak. Shunday dolzarb vazifalardan biri, ijtimoiy himoyaga muhtoj bolalar, aniqrog'i nogiron bolalar va ularning oilalari va o'zlari bilan faol ish olib boruvchi kasb egalari ijtimoiy ish hodimlaridir. Ularning faoliyatlarini ilmiy-ijodiy nuqtai-nazardan o'rganish, bu jarayonni tadqiq etishning dolzarb vazifasi deb tushunmoqlikni taqazo etmoqda.

Mazkur bitiruv malakaviy ishining zamirida jamiyat hayoti tushunchasi, uning mohiyat-mazmuni, ma'naviy yangilanishlar jarayonida, O'zbekistonda qaror topgan badiiy reallikni ijtimoiy mohiyati va shu orqali yordamga muhtoj bolalar, jumladan nogiron bolalarni ma'naviy hayot yangilanishining, ularga bo'lgan e'tiborning mazmun va mohiyati dolzarbligi asos qilib olindi. Shu bilan birga nogironlikka ega bo'lgan bolalarni ma'naviy hayot yangilanishining ijtimoiy mohiyati ochib berildi va shu asosda maqsad belgilandi.

Har bir ishni amalga oshirishda va uni bajarishda, dolzarblik, maqsad va vazifalarni belgilash jarayonida uslub va yo'llarni o'rganish borasida nazariy va amaliy jihatdan ishlab chiqish bosh vazifalardan etib belgilanadi. Ushbu ishlarni

amalga oshirish uchun avvalo, mavzuning gnezisi, ya'ni kelib chiqishi va rivojlanish nuqtasini o'rganib chiqish zarur bo'ladi. Asosiy nuqta qilib jamiyatning kichik a'zolari sanalmish nogiron bolalarning tarbiyaviy-ma'naviy kamolotini, ijtimoiy mohiyatini o'rganish va tahlil qilish asos qilib olindi. Nogiron bolalarga g'amxo'rlik, tashkil qilingan sharoitlar, nogironlikka ega bo'lgan bolalarni ijtimoiy hayotdagi o'rnini anglash borasida ma'naviy-tarbiyaviy ishlarni qanchalik yo'lga qo'yilganini e'tirof etgan holda, ushbu bolalarni asosiy ob'ekt qilib belgilandi.

Ushbu bolalarning yoshi 7-dan -11yoshgacha bo'lib, ularga tarbiyachi ustozlar mehr qo'llarini berib, tarbiyasi bilan shug'ullanib boradilar. Tili nogiron bolalarni to'g'ri so'zlashga o'rgatish, ularning har bir laxchasini to'g'rilab, so'zlarni dona-dona qilib aytishni muolaja qildirib, oshirishga harakat qiladilar. Bolalar nogiron bo'lsada yoshlikdan boshlab, ulardagi ma'naviy hayot tuunchasini hosil qilish va ijtimoiy mohiyatini anglashlari uchun izlanish olib borish lozim.

Ushbu diplom ishi kirish, ikkita bob, xulosa, tavsiya va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iboratdir.

Kirish qismida mavzuning dolzarbligi, maqsad va vazifalari, tadqiqotning uslub va yo'llari, ilmiy faraz yoritilgan bo'lib, asosiy amalga oshirilishi zarur bo'lgan ishlar belgilangan. Birinchi bobda ma'naviy hayot tushunchasi, jamiyatning ma'naviy hayotigi dahldor, ijtimoiy ingning kelib chiqishi, ma'naviy faoliyatni yaratish borasida fikrlar yuritiladi. Birinchi bobning birinchi paragrafida ma'naviy yangilanishning ijtimoiy-madaniy asoslari tahlil qilinadi. Ya'ni yangilanish jarayonida inson tafakkurini yangilash, uning ijtimoiy turmush tarzini yangilash haqida so'z boradi. Ma'naviyatda milliy qadriyatlarning o'rnini ikkinchi paragrafda aniq qilib belgilab beriladi. Ya'ni milliy mustaqillik ma'naviyat hodisasiga yangicha yondoshishlik zaruriyatini keltirib chiqarishi haqida fikr bildiriladi.

Tadqiqot ishining ikkinchi bobida esa asosiy maqsadga yaqinlashadi. Ya'ni nogironlikka ega bo'lgan bolalarni ma'naviy hayotdagi o'rni va ijtimoiy mohiyati haqida to'laonli fikrlar bayon qilinadi. Nogironlik nima? Degan savolga javob

beriladi. Nogiron bolalarga g'amxo'rlik qilish dunyo andozalaridan kelib chiqib yondoshish zarurligi qayd qilinadi. Ushbu bobda asosan xorij tajribasidan kelib chiqib chet el olimlarining fikrlari asosida fikr yuritiladi.

Ikkinchi bobning birinchi paragrafida nogironlikka ega bo'lgan shaxslarni parvarishlash va ijtimoiy hayotga qaytarish tamoyillari haqida so'z boradi va bunda ham ingliz olimi Bengt Nir'e fikrlari asosida tamoyillar havola qilinadi va asosan normallashtirish tamoyilining ta'riflari beriladi. Oxirgi paragrafda nogironlikni ijtimoiy modellari haqida so'z boradi. Bu modellar ham yevropa standartlariga mos bo'lib, professor Bill Al'bert fikrlaridan foydalanilgan. Yuqorida bildirilgan va tahlil qilingan fikrlarning barchasi rivojlangan davlatlar ijtimoiy modeliga va tamoyillariga asoslangandir.

Mustaqillikdan so'ng bizning Respublikamizda nogironlikka nisbatan e'tibor alohida loyihalar, dasturlar, qarorlar asosida ijroviy kuchga egaki, jamiyatimizning har bir nogiron a'zosi o'zini kamsitilgan deb o'ylamaslik borasida ulkan ishlar amalga oshirilmoqda. Ayniqsa, bolalar nogironligiga alohida e'tibor berilmoqdaki, bu e'tibor Prezidentimizning tashabbuslari bilan turli ijobiy yo'nalishlar va tamoyillar asosida o'zining yechimini topmoqda. Shu bois nogironlar, ayniqsa nogiron bolalar uylaridagi, maxsus maktablardagi shart-sharoitlar o'zining bo'y-basti bilan bu tashabbusga javob bermoqdaki, biz buni amalga oshirilayotgan ishlarda ko'rib turibmiz. Ushbu ishlarni amalga oshirishda ijtimoiy ish xodimlarining oldilariga ham bajarilish zarur bo'lgan vazifalar yuklanadiki, ijtimoiy ish xodimidan zaruriy bilim, amaliy ishlar, halollik, ma'naviy yetuklik talab qilinadi va shu yo'lda izlanish zarurligi vazifa etib belgilanadi.

Tavsiyalar

Nogironlikka ega bo'lgan bolalarni ma'naviy hayot yangilanishining ijtimoiy mohiyatini anglab yetish va uni tamoyil va modellarini amalga oshirish uchun quyidagilar tavsiya qilinadi:

1. Jamiyat miqyosida ijtimoiy-madaniy asoslarini ilmiy tahlil qilgan holda yondashish, bugungi o'zgarishlar jarayonida yangilanishning o'ziga xos uslub va yo'llarini asosi sifatida amalga oshirilayotgan ishlarni tahlil etish va sharhlash;
2. Mehribonlik uylarida amalga oshirilayotgan ma'naviy-madaniy sohadagi ishlarni ko'lamini kengaytirish, bolalar ijtimoiy-ma'naviy hayotini yangicha bosqichlar asosida o'rganish va tadbiq etish;
3. Normallashtirish tamoyilini shakllantirish vaqtida avvalambor aqliy buzilishlarga ega bo'lgan bolalarni tarbiyalashni tamoyilini topish;
4. Nogironlikni ijtimoiy modellik amalga oshirishda turli bosqichdagi nogiron bolalarni gnezisutiv ko'rinishlariga e'tibor berish;
5. Nogironlikka ega bo'lgan bolalarni parvarishlash va ijtimoiy-ma'naviy tushunchalarini shakllantirishda milliy qadriyatlarni o'rini anglab etish va tarbiyaga tadbiq etish.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoev Sh.M. Ta'niqidiy tahlil, qathiy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik-Ha'r bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016 yil yakunlari va 2017 yil istiqbollariiga bagishlangan majlisdagi O'zbekiston Respublikasi preziden'tining nutqi// Xalq so'zi gazetasi. 2017 yil 16 yanvar, №11
2. Mirziyoev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. "O'zbekiston" 2016.
3. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob halqimiz bilan birga qo'ramiz. "O'zbekiston" 2017
4. O'zbekiston preziden'ti SHavkat Mirziyoev 2017—2021 yillarda O'zbekistonni rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Ha'rakat strategiyasi. 7 fevral 2017 yil.
5. Karimov I.A. "O'zbekiston: milliy istiqlool, iqtisodiy, siyosiy mafkura". I tom. "O'zbekiston" nashriyoti
6. Karimov I.A. "Milliy istiqlool g'oyasi – xalqimizning ishonchi va e'tiqodi". T.: "O'qituvchi" 2000
7. Karimov I.A. YUksak ma'naviyat – engilmas kuch. T-2008.
8. Азаров, Ю.П. Семейная педагогика. Воспитание ребенка в любви, свободе и творчестве / Ю.П. Азаров. - М.: Эксмо, 2015. - 496 с.
9. Алиева, С.В. Социальная педагогика: Учебное пособие / А.В. Иванов, С.В. Алиева. - М.: Дашков и К, 2013. - 424 с.
10. Гусейнова, А.С. Психология и педагогика воспитания: Как достичь гармонии в отношениях родителей и ребенка / А.С. Гусейнова. - М.: Ленанд, 2014. - 320 с.
11. Karimova V.M. Ijtimoiy psixologiya va ijtimoiy amaliyot. - T.: 1999
12. Karimova V.M. Ota-ona maktabi-baxt kaliti.-T.,2002

- 13.Карцева, Л.В. Психология и педагогика социальной работы с семьей: Учебное пособие / Л.В. Карцева. - М.: Дашков и К, 2013. - 224 с.
- 14.S.Mannopov. Oila va oilaviy munosabatlar sotsiologiyasi. Ma`ruzalar matni. Farg`ona 2007
- 15.Maxmud T. Ma`naviyat asoslari. T.: "O`zbekiston" 2000
- 16."Bola va zamon" jurnali. Respublika bolalar ijtimoiy moslashuvi markazi. № 4. 2009
- 17.Ijtimoiy ishchining muloqotchanlik malakalari. Tarqatma materiallar. Toshkent 2007
- 18.S.Tadjieva., D.Sabirova. "Oila va bolalar bilan ijtimoiy ish". Kurs o`tkazish uchun xrestomatiya. Toshkent 2009
- 19.Chicherina Ya.E., Bondareva E.V., Nurkel`dieva D.A. Xrestomatiya dlya provedeniya treninga "Osnovi sotsial`noy raboti s det`mi invalidami i ix sem`yami". Tashkent 2010
- 20.G`anieva M.X. Ijtimoiy ish asoslari. Metodik qo`llanma Toshkent 2010
- 21.Sobirova Z. "Jamiyat yangilanishi va badiiy-estetik omillar". Toshkent "Falsafa va huquq" 2007
- 22.Umarov E., Abdullaev M. "Manaviyat asoslari". T.: "Sharq" 2005
- 23."Bola va zamon" jurnali. Respublika bolalar ijtimoiy moslashuvi markazi. № 4. 2009
- 24.O.Xasanbeva va boshkalar Oila pedagogikasi T 2006 y
- 25.Yunusov A.B. "O`smir me`yorni buzsa". T.: 2008
- 26.Chicherina Ya.E., Bondareva E.V., Nurkel`dieva D.A. xrestomatiya dlya provedeniya treninga «Osnovi sotsial`noy raboti s det`mi invalidami i ix sem`yami». T.: 2010
- 27.G`anieva M.X., Karamyan M.X., Kim L.E., Shubina A.V. ijtimoiy ishchining professiogrammasi. T.: 2009
- 28.Fitrat A. "Oila yoki oila boshqarish tartiblari". T.: "Ma`naviyat" 1998
- 29.www.ziyo.net

A'jiniyoz nomidagi Nukus Davlat pedagogika Institutining «Pedagogika» kafedrasining «Pedagogika va psixologiya» mutaxassisligining bitiruvchisi Djumamuratova Yulduz Davron qizining «Nogiron o'quvchilarni ma'naviy va ijtimoiy hayotga qaytarish» mavzudagi bakalavr bitiruv malakaviy ishiga dotsent, ilmiy rahbar S.Saytbekova tomonidan berilgan

XULOSA

Jamiyat rivojlanib, ma'naviy omillarning ijtimoiy taraqqiyotdagi o'rni va ahamiyati organi sari oiladagi tarbiyaga e'tibor ham kuchaya boradi. Bu borada oiladagi ijtimoiy-ma'naviy muhitni barqarorlashtirish, ota-onalarda farzandlar oldidagi, farzandlarda ota-ona va jamiyat oldidagi burch va mas'uliyat tuyg'usini kuchaytirish bugungi kunning eng dolzarb masalalaridan biridir. "Yurtimizda har bir inson uchun Vatan tushunchasi, avvalo, oiladan boshlanadi,-degan edi Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov,-shu bois oila va ijtimoiy, mafkuraviy tushunchalar chambarchas bog'liqdir. Oilaning jamiyatda tutgan o'rni, tarbiyaviy-axloqiy ahamiyati, qadr-qimmatini anglab etish bizning asosiy vazifamizdir".

Oila – insoniyat yaralgan muhim va muqaddas ijtimoiy institut – mussasadir. Darhaqiqat oila, ayniqsa o'zbek oilasi asrlar osha yosh avlodni tarbiyalashda, komil insonni voyaga etkazishda muqaddas maskan bo'lib kelgan va shunday bo'lib qoladi.


Mazkur ilmiy tatqiqot ish kirish, ikki bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iboratdir.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, Djumamuratova Yulduz Davron qizining mazkur bitiruv-malakaviy ishini tugallangan ish deb hisoblayman va himoyaga tavsiya qilaman.

Ilmiy rahbar:



Dots. S.Saytbekova



A'jiniyoz nomidagi Nukus Davlat pedagogika Institutining «Pedagogika» kafedrasining «Pedagogika va psixologiya» mutaxassisligining bitiruvchisi Djumamuratova Yulduz Davron qizining «Nogiron o'quvchilarni ma'naviy va ijtimoiy hayotga qaytarish» mavzudagi bakalavr bitiruv malakaviy ishiga

TAQRIZ

Dunyoda nogironlik tushunchasini sharhlash va izohlash to'g'risida uzoq yillardan beri olimlar orasida keskin tortishuvlar davom etib kelmoqda. Bu borada insonlar uchun yaqqol ko'rinib turgan hodisa – nogironlikni qanday ta'riflanishi, ularning turli-tuman ko'rinishlariga jahon ommasining tushunchasi natijasida barcha qarama-qarshiliklarning ko'rinishlari jiddiy tus olinishi ajablanarli ko'rinishi mumkin. Bunday ko'rinish bahs-munozaralarga boy bo'lib, u yoki bu sisat va rivojlanayotgan davlatlarda moddiy ehtiyojlar sharoitida yashovchi imkoniyati cheklangan odamlar bilan ishlash amaliyotining shakllanishi uchun shunday katta ahamiyatga ega ekanini umumiy tushuntirish deb anglashni taqazo etadi.

Milliy mustaqillik sharoitida amalga oshirilayotgan islohotlar tufayli ijtimoiy hayotning barcha sohalarida, jumladan, jamiyat va shaxs ma'naviyatidagi tub o'zgarishlarda yangilanish jarayonlari yuz bermoqda. Darhaqiqat jamiyat taraqqiyotining hozirgi bosqichida mustaqil yurtimizning iqtisodiy-siyosiy barqarorlikka ro'y-rost erishayotgani o'z navbatida, ma'naviy yangilanishni ham taqazo etayotganligi ham tabiiy holdir. Negaki har qanday jamiyatda o'z milliy-ma'naviy qiyofasi bo'lmas ekan, jamiyat o'z o'rniga ega bo'lmaydi. Yangilanish nafaqat umumjamiyat miqyosidagi, balki har bir inson kamoloti uchun zarur shart-sharoit yaratadigan jarayondir. Shu ma'noda ham jamiyatdagi boshqa o'zgarishlar kabi, avvalo inson uchun uning kamoloti va hayot farovonligini ta'minlaydigan islohotdir.

Demak, jamiyat taraqqiyotining konkret tarixiy bosqichiga xos qonuniy jarayonlar va konkret vazifalar yangilanishning ob'ektiv zaminini tashkil

etadi. Jamiyat yangilanishining har qanday jarayoni inson mentaliteti, ruhiyati va uning ob'ektiv zaruriyatni yangilik tarzida idrok etish qobiliyatidan boshlanadi va turmushning iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy, ma'naviy-madaniy va boshqa sohalarini qamrab oladi.

Aqliy buzilishga ega bo'lgan bolalarda bo'lishi mumkin bo'lgan qo'shimchi funktsional buzilishlar, serebal falaj yoki boshqa harakat funktsiyalarini – ko'rlik, karlikni oldindan inobatga olish va ularga ta'sir etish lozim.

Mazkur ilmiy tatqiqot ish kirish, ikki bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iboratdir.

Diplom ishida bazi bir orfografik va stilistik xatolar uchraydi, lekin bu xatolar mutaxassislik ishining mazmunini va sifatini pasayttirmaydi. Bitiruv malakaviy ish mazmun tomonidan barcha talablarga javob beradi va men uni himoyaga tavsiya etaman.

P.f.d.



T.Utebaev

NMFI

qol tan'basin tasdiqlayman

K.B.inspektori

A'jiniyoz nomidagi Nukus Davlat pedagogika Institutining «Pedagogika» kafedrasining «Pedagogika va psixologiya» mutaxassisligining bitiruvchisi Djumamuratova Yulduz Davron qizining «Nogiron o'quvchilarni ma'naviy va ijtimoiy hayotga qaytarish» mavzudagi bakalavr bitiruv malakaviy ishiga

TAQRIZ

Jamiyat mavjudligi va taraqqiyotining muhim tomoni va harakatlantiruvchi kuchi ma'naviy hayot hisoblanadi. Jamiyatning ma'naviy hayoti avvalambor ikki jihati bilan ko'zga tashlanadi. Birinchidan, u kishilar hayotiy faoliyatning ko'zga ko'rinishi va kechishi, uning asosiy turlaridan bo'lib, ikkinchi tomondan, jamiyatning nisbiy mustaqil sohasidir.

Jamiyatning ma'naviy hayotiga dahldor muammolarini manbalari inson faoliyatining ikki yoqlama, ya'ni moddiy va ma'naviy shaklda ro'yobga chiqishidan kelib chiqadi. Ma'naviy ne'matlarni ishlab chiqarish aqliy-mehnat sohiblari tomonidan alohida ijtimoiy ongli faoliyat vujudga keltirishdan iboratdir. Bu jarayonlarning natijalariga asosan uch yo'nalishda, ya'ni birinchidan, g'oya va nazariyalar, ma'naviy qadriyatlar; ikkinchidan, individlarning ijtimoiy-ma'naviy aloqalari; uchinchidan, muayyan dunyoqarash sohibi bo'lgan inson (keng ma'noda ma'naviy mohiyat)ning ichki olami orqali gavdalanadi. Ma'naviy ne'matlarni ishlab chiqarish strukturasi jihatdan voqelikni asosan uch xil, ya'ni ilmiy, estetik, diniy shaklda o'zlashtirishni ifodalaydi.

Jamiyatda mavjud aloqa va munosabatlarning rang-barangligi o'z-o'zidan ravshan, biroq, eng asosiysi, ikki ya'ni ularning moddiy va ma'naviy sohalarda ko'rinishlari hisoblanadi. Binobarin, ular kishilar o'rtasida amal qiladigan bir tartibdagi munosabatlar ifodasidir. Demak, hamma gap munosabatning ikkala turi o'rtasidagi tafovutlarning asoslanishi, ularning nimaga tayanib tarkib topishidadir. Agar bu asos moddiy bo'lsa, munosabat

ham shunga muvofiq bo'lsa, bu asos – g'oya, tushuncha, obraz tazida bo'lsa, u holda munosabatlar ma'naviylik kasb etadi. Shunga ko'ra, ma'naviy ne'matlar ishlab chiqarishning uchun ya'ni: g'oyalarni, obrazlarni, tasavvurlarni sof tushunchalarda yaratish, kishilar o'rtasida shakllanadigan ma'naviy aloqalar, ijtimoiy-ma'naviy munosabatlarni tarkib toptirish turlari amal qiladi.

Mazkur ilmiy tatqiqot ish kirish, ikki bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iboratdir.

Diplom ishida bazi bir orfografik va stilistik xatolar uchraydi, lekin bu xatolar mutaxassislik ishining maznunini va sifatini pasayttirmaydi. Bitiruv malakaviy ish mazmun tomonidan barcha talablarga javob beradi va men uni himoyaga tavsiya etaman.

Docent:  P. Abdimuratov